Raxit kasalligini farqlashda yana bir o'xshash kasalliklardan bir nechta turlari farqlanadi: birlamchi giperparatireoz – bezning o'zidagi o'sma yoki giperplaziya natijasida; ikkilamchi giperparatireoz – uzoq muddatli kalsiy yetishmovchiligi

yoki noto'g'ri oziqlanishda; buyrak (renal) giperparatireoz – buyrak patogenezida PTH gormonining ortiqcha ajralishi natijasida suyaklardan kalsiy chiqishi kuchayib, suyaklarda demineralizatsiya rivojlanadi. [14,4,6] Birlamchi giperparatireozda paratiroid bezi juda ko'p paratiroid gormonini ishlab chiqaradi. Bu gormon tanadagi kaltsiy va fosfor almashinuvini boshqaradi. Agar qalqonoldi bezida juda ko'p paratiroid gormoni chiqarilsa, suyaklardan minerallar yuvilib, uning o'rnida tolali biriktiruvchi to'qimalar paydo bo'ladi va fibroz osteodistrofiya rivojlanishiga olib keladi. Kasal itlarda oqsoqlanish, umurtqa pog'onasida yoriqlar, orqa miyaga bosim oshishi ba'zi hollarda yuz suyaklarining qalinlashishiga olib keladi. [2,4,11,6]

Ikkilamchi giperparatireoz rivojlanishiga hipokalsemiyaning asosiy belgilari, ya'ni mushaklarning qaltirashi, tetaniya (mushaklarning beixtiyor, og'riqli qisqarishi) oqsoqlik, nimjon va harakatlanganda og'riqli sezishi, naysimon suyaklarning deformatsiyasi natijasida oyoqlarning egriligi, tishlar buzilishi, umurtqa pog'onasida nevrologik belgilar kuzatilishi bilan xarakterlanadi. Rentgenogrammada esa oyoq suyaklarda yoriqlar, ko'krak devori, tos suyaklari, epifiz, umurtqa pog'onasining deformatsiyasi, suyak zichligining yo'qolishi va kortikal qatlamning yupqalashishi bilan raxit kasalligidan farqlash lozim. Qon zardobidagi ishqoriy fosfataza darajasi odatda ko'tariladi, ammo bu ko'pincha o'sayotgan itlarda me'yorida bo'ladi. [1,12,13,15]

Xulosa. 1. O'rganilgan adabiyot ma'lumotlari tahliliga ko'ra, yosh itlarda uchraydigan raxit kasalligining differensial diagnostikasini aniqlashda: klinik belgilar, qondagi biokimyoviy ko'rsatkichlar, rentgen tekshiruvlar asosiy o'rinni egallaydi. Xususan, rentgenogrammada suyak to'qimasi zichligi pasayishi, metafiz zonalarining kengayishi va suyak uchlarining deformatsiyasi kuzatilishi bilan izohlanadi.

2. Raxit kasalligini osteomalatsiya, gipokalsiyemiya, suyak sinishi, osteomiyelit, tug'ma suyak nuqsonlari, D vitamininga bog'liq raxit va giperparatireoz kabi kasalliklardan differensial diagnostika qilish muhim hisoblanib, kasallikka to'g'ri tashxis qo'yish va samarali davolash choralarini belgilashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бектанова Х.Н., Қ.Норбоев. (2022). Ёш итларда Д гиповитаминознинг клиник белгилари. Агробиотехнология ва ветеринария тиббиёти журнали. Б.11-10.
2. Бектанова Х.Н., Қ.Норбоев.,Ж.Юлчиев (2026). Показатели крови собак при рахите. Международной научно-практической конференции «ПАТОЛОГИЧЕСКАЯ ФИЗИОЛОГИЯ - СВЯЗЬ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ», Посвященной 105-летию кафедры патологической физиологии спбгумв и 100-летию со

дня рождения профессора, доктора ветеринарных наук, заслуженного деятеля науки Р.Ф. Лютинского С.И.

3. Гусева В.А. (2025) Гиперпаратиреоз или рахит – как разобратся // Ветеринарный Петербург. № 3. <https://spbvet.info/zhurnaly/3-2025/giperparatireoz-ili-rakhit-kak-razobratsya/>
4. Игнатенко Н. А. (2015) Нарушение метаболизма кальция: гиперкальциемия // Vet Pharma. – № 6.
5. Кузнецова С.Ю., Новиков П.В., Прошлякова Т.Ю., Захарова Е.Ю. (2013) Гипофосфатемический рахит у детей // Российский вестник перинатологии и педиатрии. – Т. 58. – № 4. – С. 14–19.
6. Рязанова Е. (2010) Рахит и рахитоподобные заболевания: клинко-рентгенологические, биохимические проявления, лечение // Вестник Российского научного центра рентгенорадиологии Минздрава России. <https://ouci.dntb.gov.ua/en/works/4gYVAj19/>
7. Смирнова О. (2012) Пищевой вторичный гиперпаратиреоидизм (ювенильная остеодистрофия) // Vet Pharma. – № 5.
8. Daminov T. A., Xalmatova B. T., Boboyeva U. R. (2012) Bolalar kasalliklari : darslik. – Toshkent,. <https://book.bsmi.uz/web/kitoblar/152371155>.
9. Alwan. A. I., Hazzazi M., Alzeer I., Tamimi W (2013) Clinical presentation and etiology of osteomalacia/rickets in adolescents // Saudi Journal of Kidney Diseases and Transplantation. – Vol. 24. – P. 938–941.
10. Vine. L.N., Ghiloni R. J., et al. (2009) Hereditary 1,25-dihydroxyvitamin D-resistant rickets in a Pomeranian dog caused by a novel mutation in the vitamin D receptor gene // Journal of Veterinary Internal Medicine. – Vol. 23, № 6. – P. 1278–1283.
11. Grünberg W. (2022) Rickets // Merck Veterinary Manual [Electronic resource].
12. Paparella R., Pastore F., Marchetti L., Bernabei I., Zambano A., Celli M., et al. (2026) Endocrine Disorders of Calcium Signaling in Children: Neuroendocrine Crosstalk and Clinical Implications // Cells. – Vol. 15. – Art. 140. – DOI: 10.3390/cells15020140.
13. Pedrinelli V., Zafalon R.A., Risolia L. W., et al. (2020) Vitamin D metabolism in dogs and cats and its relation to diseases not associated with bone metabolism // Journal of Animal Physiology and Animal Nutrition.
14. Selby P. L., Francis R. M. (1997). Osteomalacia // Baillière's Clinical Endocrinology and Metabolism.– Vol. 11, № 1. – P. 145–163.
15. Corbee R. J. (2022). Vitamin D in Health and Disease in Dogs and Cats // Advances in Small Animal Care. – Vol. 1.
16. Teshima T., Kurita S., Sasaki T., Matsumoto H., Niina A., Abe D., Kanno N., (2019) Koyama H. A genetic variant of CYP2R1 identified in a cat with type B1 vitamin D-dependent rickets: a case report // BMC Veterinary Research. – Vol. 15. – Art. 62.
17. Holick M. F. (2006) Resurrection of vitamin D deficiency and rickets // Journal of Clinical Investigation. – Vol. 116. – P. 2062–2072.

UDK: 619:636.2:616:636.084

GOLSHTIN FRIZ ZOTLI SIGIRLARDA OSHQOZON-ICHAK HAMDA GEPATOBILIAR TIZIM KASALLIKLARINI PROFILAKTIK DAVOLASH SHAROITIDA QON KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISHLARI

B. Bakirov, v.f.d., professor;

B.N.Xayitov, v.f.b.f.d., (PhD), mustaqil izlanuvchi,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Golshtin Friz zotli sigirlarda oshqozon-ichak hamda hepatobiliar tizim kasalliklari sharoitida qo'llanilgan keng qamrovli profilaktik-davolash usulining gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlarga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot 2-tajriba guruhidagi 3 bosh sigirda olib borilib, 15 kun davomida shilimshiqli mikrobiologik aralashma va Gastro-Neo ekstrakti qo'llanildi. Natijada yallig'lanish faolligining pasayishi, immunologik gomeostazning tiklanishi, eritropoez jarayonlarining faollashishi hamda jigarning sintez vazifasi yaxshilanishi qayd etildi. Leykotsitar formula, eritrotsitar ko'rsatkichlar va biokimyoviy ko'rsatkichlar o'zgarishi organizmda ijobiy metabolik o'zgarishlar yuz berganligini tasdiqladi. Shu bilan birga umumiy bilirubinning yuqoriligi hepatobiliar tizimning ayrim vazifaviy jarayonlari to'liq tiklanmaganligini ko'rsatdi. Olingan natijalar qo'llanilgan usulning klinik va laborator samaradorligini asoslab berdi.

Kalit so'zlar: Golshtin Friz zotli sigirlar; oshqozon-ichak kasalliklari, hepatobiliar tizim, keng qamrovli profilaktik-davolash, mikrobiologik aralashma, Gastro-Neo ekstrakti, gematologik ko'rsatkichlar, biokimyoviy tahlil, yallig'lanish, endotoksemiya, eritropoez, jigar vazifalari, ichak-jigar o'qi, metabolik sindrom.

Mavzuning dolzarbligi. So'nggi yillarda intensiv chorvachilik tizimida yuqori mahsuldor sut yo'nalishidagi sigirlar orasida metabolik kasalliklar keng tarqalib bormoqda. Ayniqsa, yuqori sut berish sharoitidagi Golshtin Friz zotli sigirlarda energetik va oqsil almashinuvining ortishi natijasida oshqozon-ichak hamda hepatobiliar tizim kasalliklari tez-tez uchramoqda. Ushbu kasalliklar faqat mahalliy oshqozon-ichak buzilishi sifatida emas, balki butun organizmni qamrab oluvchi yalpi metabolik sindrom sifatida namoyon bo'ladi. Klinik amaliyotda bunday holatlar ko'pincha katta qorin, shirdon, 12 barmoq ichak kasalliklari, enteritlar, disbakterioz, jigar vazifalarining pasayishi va endotoksemiya bilan birga kechadi.

Oshqozon-ichak tizimidagi kasalliklar davrida ichak mikroflorasining buzilishi, toksik metabolitlarning qonga so'rilishi va yallig'lanish vositachilarining faollashuvi orqali hepatobiliar tizimga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy veterinariya fanida (ichak - jigar o'qi) tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Ushbu tushunchaga ko'ra, ichakdagi patologik o'zgarishlar jigarning detoksikatsiya, oqsil sintezi va pigment almashinuv jarayonlarini ikkilamchi ravishda buzadi. Gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlar organizmning ichki gomeostazini aks ettiruvchi eng muhim diagnostik belgilar hisoblanadi. Eritrotsitlar, gemoglobin va gematokrit ko'rsatkichlari kislorod tashish tizimi holatini ifodalasa, leykotsitar formula organizmning yallig'lanish va immun javobini ko'rsatadi. Biokimyoviy ko'rsatkichlar (AST, ALT,

Abstract. This study investigated the effects of a complex preventive and therapeutic approach on hematological and biochemical parameters in Holstein Friesian cattle suffering from gastrointestinal and hepatobiliary disorders. The experiment was conducted on a 2nd experimental group of three cows and lasted for 15 days. Animals received a mucous microbiological mixture and Gastro-Neo extract. The results demonstrated a reduction in inflammatory activity, restoration of immunological homeostasis, activation of erythropoiesis, and improvement of hepatic synthetic function. Changes in leukocyte profile, erythrocyte indices, and biochemical markers confirmed positive metabolic dynamics in the organism. However, elevated bilirubin fractions indicated that certain hepatobiliary functional mechanisms had not yet fully recovered. Overall, the findings support the clinical and laboratory effectiveness of the applied treatment approach.

Keywords. Holstein Friesian cattle, gastrointestinal diseases, hepatobiliary system, complex therapy, microbiological mixture, Gastro-Neo extract, hematological parameters, biochemical analysis, inflammation, endotoxemia, erythropoiesis, liver function, gut-liver axis, metabolic syndrome.

bilirubin, albumin, umumiy oqsil) esa jigar va metabolik tizim faoliyatini baholashda asosiy ahamiyatga ega. Qoramollarda oshqozon-ichak va hepatobiliar tizim kasalliklari o'zaro bog'liq metabolik sindrom sifatida keng o'rganilgan. [2.] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qoramollarda oshqozon-ichak kasalliklarining qiyosiy diagnostikasi yoritilib, klinik belgilar bilan laborator ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik muhim diagnostik mezon ekanligi ta'kidlangan. [3.], jigar yog'li distrofiyasi va metabolik buzilishlar holatida sog'in sigirlarda biokimyoviy o'zgarishlarni o'rganib, ayniqsa, umumiy albumin va bilirubinning jigar vazifalari holatini baholashdagi ahamiyatini ko'rsatgan. Imhasly S. [6.], ma'lumotlariga ko'ra, metabolik yondashuv asosida jigar kasalliklarini erta aniqlash mumkinligini isbotlab, AST, ALT va lipid metabolitlari o'zgarishi bilan klinik holat o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini aniqlagan. Dezfouli M.M. [4.], ma'lumotlariga ko'ra, shirdonning siljishi bilan kasallangan sigirlarda gematologik o'zgarishlar, ayniqsa, leykotsitoz, suvsizlanish va elektrolit muvozanatining buzilishini qayd etgan. Elshafey B.G. [5.], ma'lumotlariga ko'ra, jigar kasalliklarida ultratovush diagnostikasi va biokimyoviy ko'rsatkichlar aralashmasi diagnostik aniqlikni sezilarli oshirishini ko'rsatgan. Andjelić B. [1.], ma'lumotlariga ko'ra, sog'in sigirlarida metabolik holat va qon biokimyoviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, mahsuldorlik pasayishi bilan metabolik buzilishlar orasida kuchli raqamli bog'liqlik mavjudligini aniqlagan.

Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda oshqozon-ichak kasalliklari sharoitida gepatobiliar tizim o'zgarishlarini kompleks profilaktik-davolash va uning gematologik hamda biokimyoviy ko'rsatkichlarga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi. Golshtin Friz zotli sigirlarda oshqozon-ichak va gepatobiliar tizim kasalliklarini keng qamrovli profilaktik-davolash sharoitida gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlarning o'zgarishini baholashdan iborat.

Tadqiqot obyekti va usullar. Ushbu tadqiqot 2026-yil Samarqand viloyati Tayloq tumaniga qarashli "Siyob Shavkat Orzu" fermer xo'jaligi sharoitida o'tkazildi va unda Golshtin Friz zotli sut yo'nalishidagi sigirlardan foydalanildi. Klinik tekshiruvlar natijasiga ko'ra oshqozon-ichak hamda gepatobiliar tizim kasalliklar belgilari kuzatilgan 3 bosh sigir tanlab olindi. Tanlangan hayvonlar umumiy klinik holat, ishtaha darajasi, kavsh qaytarish soni, tezak konsistensiyasi hamda umumiy mahsuldorlik pasayishi asosida kasallik guruhiga kiritildi. Tadqiqot kichik tanlama ($n=3$) asosida olib borilganligi sababli natijalar individual klinik kuzatuv va o'rtacha qiymatlar asosida baholandi.

Tajriba hayvonlarida quyidagi klinik va laborator tekshiruvlar amalga oshirildi:

umumiy klinik tekshirish (harorat, puls, nafas olish tezligi, ruminatsiya);

oshqozon-ichak tizimi faoliyatini tekshirish;

jigar sohasini klinik tekshirish;

gematologik ko'rsatkichlar;

biokimyoviy ko'rsatkichlar.

Klinik tekshirishlar profilaktik davolashning butun davomiyligi (15 kun) mobaynida muntazam olib borildi.

Qon namunalari ertalab, hayvonlar oziqlantirilishidan oldin amalga oshirildi.

Olingan qon namunalari quyidagi ko'rsatkichlar o'rganildi: eritrotsitlar soni, gemoglobin miqdori, gematokrit, leykotsitlar soni, leykotsitar formula (neytrofil, limfotsit, monotsit, eozinofil), trombositlar soni, eritrotsit ko'rsatkichlari (MCH, MCHC, RDW), umumiy oqsil, albumin, glyukoza, kreatinin, umumiy bilirubin, bog'lanmagan bilirubin, AST (aspartataminotransferaza), ALT (alaninamino-transferaza).

Tajriba davomida hayvonlarga qo'llanilgan profilaktik-davolash usuli.

Kuniga bir marta 80 gr shilimshiqli mikrobiologik aralashma 1 litr iliq suvda eritilib, og'iz orqali berildi, 15-20 daqiqadan so'ng Gastro-Neo ekstrakti 0,2 ml/kg tirik vazn hisobida 0,5 litr suvda eritilib ichirildi. Profilaktik-davolash kursi 15 kun davom etdi. Ushbu usul oshqozon-ichak mikroflorasini tiklash, yallig'lanish jarayonlarini kamaytirish hamda gepatobiliar tizim vazifalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llanildi.

Olingan natijalar tahlili. Olingan laborator ko'rsatkichlar 3 bosh sigirdan olingan natijalarning o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblandi. Natijalar keng qamrovli profilaktik-davolashdan oldingi va 15-kunidagi ko'rsatkichlar o'rtasida qiyosiy tahlil orqali o'rganildi. Statistik ishlov be-

rishda kichik tanlama ($n=3$) hisobga olinib, natijalar klinik va biologik talqin asosida baholandi.

Tadqiqot davomida 2-tajriba guruhiga kiruvchi 3 bosh Golshtin Friz zotli sigirda 15 kunlik keng qamrovli profilaktik-davolashdan so'ng olingan gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatlari dastlabki (profilaktik-davolashdan oldingi) ko'rsatkichlar bilan taqqoslandi.

Natijalar organizmning umumiy yallig'lanish darajasi, jigar holati, qon hosil qiluvchi tizim faolligi hamda metabolik jarayonlarning o'zgarishini baholash asosida tahlil qilindi.

Keng qamrovli profilaktik-davolashdan keyin umumiy oqsil 91,2 g/l dan 89,6 g/l gacha biroz pasaygan. Bu o'zgarish klinik jihatdan gemokonsentratsiyaning kamayishi va suyuqlik muvozanatining qisman me'yorlashuvi bilan izohlanadi. Albumin esa 57,5 g/l dan 68,5 g/l gacha sezilarli oshgan. Bu holat jigarining sintez qilish vazifasini o'rin to'ldiruvchi faollashuvi bilan birga organizmda metabolik stress hali to'liq bartaraf etilmaganligini ko'rsatadi. Albumin oshishi bir tomondan jigar faol javobini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan oqsil almashinuvi hali to'liq barqaror emasligini bildiradi.

Glyukoza darajasi 3,24 → 3,44 mmol/l oraliq'ida saqlangan. Bu holat jigarining glikogen sintezi saqlanganligi, og'ir energetik yetishmovchilik rivojlanmaganligi, katta qorindagi mikrobiologik jarayonlarning jiddiy darajada buzilmaganligini bildiradi. Kreatinin 45 → 49 μ mol/l ga biroz oshgan. Bu mushak metabolizmi tiklanish bosqichida, oqsil parchalanishi jarayoni pasaygan, umumiy metabolik faollik tiklanish yo'nalishida. Umumiy bilirubin 11,3 → 15,5 μ mol/l, hamda bog'lanmagan bilirubin 26,03 → 37,69 μ mol/l. Bu juda muhim patofiziologik belgi hisoblanadi. ALT va AST pasaygan (yallig'lanish kamaygan) lekin bilirubin oshgan (metabolik chiqarilish buzilgan), bu holat jigar hujayralarining detoksikatsiya vazifasi to'liq tiklanmagan, bilirubinning konyugatsiya jarayoni sust, jigar-ichak o'qi hali muozanat-sizligini ko'rsatdi.

Eritrotsitlar 6,21 → 6,75 mln/mkl, gemoglobin 91 → 105 g/l holatda, bu eritropoez faollashgan, kislorod tashish tizimi yaxshilangan, anemiya tuzalish bosqichiga o'tgan, ammo MCHC pastligicha qolgan → eritrotsitlarning gemoglobin bilan to'yinish jarayoni hali to'liq emas. Gematokrit 30,5% (past darajada saqlangan), RDW sezilarli yuqori, ammo, eritrotsitlar turli hil, tiklanish jarayoni hali yetarli darajada emas.

Leykotsitlar 9,48 → 7,38 ming/mkl, Neytrofillar 63,5% → 30,46%, Limfotsitlar 22,5% → 52,5%, Monotsitlar 13,2% → 5,4%, Eozinofillar 0,7% → 2,7%. Boshlang'ich holatda neytrofiliya, limfopeniya, monotsitoz holatini namayon qildi, bu holat bakterial yallig'lanish va endotoksemiya uchun xarakterlidir. Keng qamrovli profilaktik-davolashdan so'ng neytrofillar kamaygan, limfotsitlar tiklangan, monotsitlar normallashtirildi. Immun tizim gomeostazi sezilarli darajada tiklangan.

Trombositlar 525 → 317 ming/mkl, bu yallig'lanish va stress jarayoni kamaygan, gemostaz tizimi me'yorlashish bosqichida ekanligini bildirdi.

Olingan natijalar 15 kunlik keng qamrovli profilaktik-davolash jarayonida Golshtin Friz zotli sigirlarda oshqozon-ichak hamda hepatobiliar tizim kasalliklarining klinik va laborator ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatdi. Biroq ushbu o'zgarishlar to'liq tiklanish emas, balki o'rin to'ldiruvchi va qisman barqarorlashuv bosqichi sifatida baholanishi lozim. Tadqiqot natijalarini talqin qilishda asosiy e'tibor (ichak - jigar o'qi) "gut-liver axis" yondashuviga qaratiladi. Bu yondashuvga ko'ra, ichakdagi mikrobiologik buzilishlar jigar metabolizmi, detoksikatsion jarayonlari va immun javob bilan bevosita bog'liq bo'lib, bir tizimdagi buzilish ikkinchi tizimda ham vazifaviy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Keng qamrovli profilaktik-davolashdan so'ng ALT va AST ko'rsatkichlarining pasayishi hepatotsitlar qo'big'ining shikastlanishi va yallig'lanish jarayonlarining susayganini bildiradi. Bu holat [3.], tomonidan ta'kidlangan jigar kasalliklarida ferment faolligining o'zgaruvchan o'zgarishlariga mos keladi. Biroq bilirubin fraksiyalarining oshib borishi hepatobiliar tizimning detoksikatsion va kon'yugatsiya vazifasi to'liq tiklanmaganini ko'rsatadi. Bu holat [6.], ishlarida qayd etilgan metabolik buzilishlar holatida bilirubin almashinuvi buzilishi bilan mos keladi. Shu bilan birga albumin miqdorining oshishi jigar sintez vazifasining o'rin to'ldiruvchanlikni faollashuvini bildiradi. Bu [1.], tomonidan tasvirlangan metabolik moslashuv jarayonlariga yaqin. Eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining oshishi eritropoez jarayonining faollashganini ko'rsatadi. Bu holat ichakdan oziqa moddalarning so'rilishi yaxshilanishi va toksinlarning kamayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Leykotsitar formula o'zgarishi esa eng muhim immunologik belgilardan biri bo'lib, neytrofiliyaning kamayishi va limfotsitozning tiklanishi bakterial yallig'lanish faolligining pasayganini ko'rsatadi. Bu natijalar [2.], tomonidan ta'riflangan qoramollarda yallig'lanish kasalliklarining immunologik o'zgarishiga mos keladi. Trombotsitlar sonining kamayishi esa stress va yallig'lanish jarayonining susayishi bilan izohlanadi. Oshqozon-ichak kasalliklari sharoitida ichak mikroflorasining buzilishi endotoksinlarning qonga so'rilishini kuchaytiradi. Bu esa jigar Kupffer hujayralari faollashuvi va yallig'lanish vositachilarining ishlab chiqarilishini oshiradi. Tadqiqot natijalarida ALT va AST pasaygan bo'lsada, umumiy bilirubinning oshishi jigar detoksikatsiya vazifalarining to'liq tiklanmaganini ko'rsatadi. Bu "ichak-jigar o'qi"ning hali ham qisman muozanatlashmagan holatida ekanligini bildiradi. Elshafey B.G. [5.], tadqiqotlarida ham jigar patologiyalarida biokimyoviy ko'rsatkichlar va klinik holat o'rtasidagi nomutanosiblik erta tiklanish bosqichlarida kuzatilishi mumkinligi ta'kidlangan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yallig'lanish jarayoni sezilarli kamaygan, immun tizimning javob berishi me'yorlashgan, eritropoez jarayoni faollashgan, umumiy metabolik holat yaxshilangan. Biroq bilirubin almashinuvi to'liq tiklanmagan, gematokrit past darajada saqlanib qolgan, ayrim eritrotsit ko'rsatkichlari hali me'yorga to'liq yetmagan. Shu sababli keng qamrovli profilaktik-davolash samarasi "qisman ijobiy va vazifaviy tiklanish bosqichida" deb baholanadi.

Xulosa

1. Golshtin Friz zotli sigirlarda oshqozon-ichak hamda hepatobiliar tizim kasalliklari sharoitida 15 kun davomida qo'llanilgan keng qamrovli profilaktik-davolash usuli natijasida leykotsitlar soni 9,48 ming/mkl dan 7,38 ming/mkl gacha kamayib, neytrofiliyaning orqaga ketishi va limfotsitlar ulushining ortishi kuzatildi. 2-tajriba guruhida aniqlangan ushbu o'zgarishlar organizmdagi yallig'lanish jarayonlari va endotoksinlar ta'sit pasayganligini ko'rsatdi.

2. Tajriba oxirida eritrotsitlar soni 6,21 mln/mkl dan 6,75 mln/mkl gacha, gemoglobin miqdori esa 91 g/l dan 105 g/l gacha oshdi. Ushbu o'zgarishlar eritropoez jarayonining faollashganligini va organizmning kislorod tashish vazifasi yaxshilanganligini ko'rsatdi.

3. Biokimyoviy tahlillarda albumin miqdorining 57,5 g/l dan 68,5 g/l gacha ortishi hamda AST va ALT ko'rsatkichlarining pasayishi jigar vazifasida ijobiy o'sish mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga umumiy va bog'lanmagan bilirubin miqdorining oshishi hepatobiliar tizimning ayrim metabolik vazifalari hali to'liq tiklanmaganligidan dalolat.

4. 2-tajriba guruhiga qo'llanilgan 80 g shilimshiqli mikrobiologik aralashma va Gastro-Neo ekstraktining 0,2 ml/kg tirik vazn hisobida 15 kun davomida qo'llanilishi oshqozon-ichak va hepatobiliar tizim kasalliklari bilan kechuvchi holatlarda gematologik, immunologik hamda biokimyoviy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga xizmat qildi, biroq ayrim metabolik ko'rsatkichlar bo'yicha tiklanish jarayoni davom etayotganligi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andjelić B, Djoković R, Cincović M, Bogosavljević-Bošković S, Petrović M, Mladenović J, Čukić A. Relationships between milk and blood biochemical parameters and metabolic status in dairy cows during lactation. *Metabolites*. 2022;12(8):733. P. 1-18. DOI: <https://doi.org/10.3390/metabo12080733>.
2. Belknap EB, Navarre CB. Differentiation of gastrointestinal diseases in adult cattle. *Veterinary Clinics of North America: Food Animal Practice*. 2016;32(1):1-20. P. 1-20. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.cvfa.2015.09.001>.
3. Cebra CK. Serum biochemical abnormalities in hepatic lipodosis in dairy cattle. *Veterinary Clinics of North America: Food Animal Practice*. 1997;13(2):417-432. P. 417-432. DOI: [https://doi.org/10.1016/S0749-0720\(15\)30339-4](https://doi.org/10.1016/S0749-0720(15)30339-4).
4. Dezfouli MM, et al. Hematological and biochemical profiles in dairy cows with gastrointestinal disorders. *Veterinary Research Forum*. 2013;4(3):187-193. P. 187-193. DOI: <https://doi.org/10.30466/vrf.2013.333>.
5. Elshafey BG, et al. Biochemical parameters in hepatic dysfunction assessment in cattle. *Animals*. 2023;13(2):256. P. 1-12. <https://doi.org/10.3390/ani13020256>.
6. Imhasly S, et al. Metabolomic biomarkers correlating with hepatic lipodosis in dairy cows. *BMC Veterinary Research*. 2014;10:122. P. 1-12. <https://doi.org/10.1186/1746-6148-10-122>.

OQ VELIKAN, KULRANG VELIKAN VA FLANDR ZOTLI QUYONLAR POSTNATAL ONTOGENEZIDA YELKA SUYAGI KOMPAKT MODDASINING O‘ZGARISH DINAMIKASI

X.B.Yunusov, b.f.d., professor,
N.B.Dilmurodov, v.f.d., professor,

Z.R.Mirzoyev, assistant,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Kulrang velikan, oq velikan va flandr zotiga mansub quyonlar postnatal ontogenezida yelka suyagining dorsal va palmar kompakt moddalari morfometrik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish xususiyatlari o‘rganilgan. Yelka suyagining dorsal va palmar kompakt moddalari qalinligining ko‘rsatkichlari quyonlar postnatal rivojlanishining har xil fiziologik bosqichlari davomida o‘ziga xos o‘shish dinamikasiga ega ekanligi aniqlangan. Yelka suyagining dorsal va palmar kompakt modda qalinligining mutloq ko‘rsatkichlari ayniqsa, postnatal ontogenezning dastlabki kundan 21 kunligiga qadar 1- va 3-guruhidagi quyonlarda 2-guruhga nisbatan yuqori bo‘lishi kuzatilgan.

Kalit so‘zlar: quyon, kulrang velikan, oq velikan, flandr, yelka suyagi, postnatal ontogenez, dorsal kompakt modda, palmar kompakt modda, o‘shish koeffitsiyenti, chiziqli o‘lcham.

Аннотация. Изучены особенности изменений морфометрических показателей дорсального и пальмарного компактного вещества плечевой кости у кроликов пород серый великан, белый великан и фландр в постнатальном онтогенезе. Установлено, что показатели толщины дорсального и пальмарного компактного вещества плечевой кости имеют специфическую динамику роста на различных физиологических этапах постнатального развития кроликов. Особенно отмечено, что абсолютные показатели толщины дорсального и пальмарного компактного вещества плечевой кости у кроликов 1-й и 3-й групп с первых суток до 21-дневного возраста были выше по сравнению со 2-й группой.

Ключевые слова: кролик, серый великан, белый великан и фландр, плечевой, последровой онтогенез, дорсальное компактное вещество, вольярное компактное вещество, коэффициент роста, линейный размер.

Summary. The features of changes in the morphometric indicators of the dorsal and palmar compact substance of the humeral bone in rabbits of the Grey Giant, White Giant, and Flandrs breeds in postnatal ontogenesis have been studied. It has been established that the indicators of the thickness of the dorsal and palmar compact substance of the humeral bone have a specific growth dynamics at various physiological stages of postnatal development in rabbits. It was especially noted that the absolute values of the thickness of the dorsal and palmar compact substance of the humeral bone in rabbits of the 1st and 3rd groups were higher from the first day to 21 days of age compared to the 2nd group.

Key words: rabbit, gray giant, white giant and flandr, shoulder, postpartum ontogenesis, dorsal compact substance, volyar compact substance, growth coefficient, linear size.

Kirish. Quyonchilik hozirgi kunda chorvachilikning eng jadal rivojlanayotgan tarmog‘i bo‘lib, aholiga to‘la qiymatli hayvon oqsili manbai bo‘lgan mahsulotlarning eng katta foizini yetkazib beradi. Shu tufayli zamonaviy kulrang velikan quyonlarining biologik xususiyatlaridan tez o‘shish va yuqori mahsuldorlik boshqa turdagi go‘sh tashlab chiqarishga nisbatan kam resurs sarflanishi va quyon go‘shining arzonligi bilan ajralib turadi.

Qishloq xo‘jaligi va uy hayvonlaridan sifatli va ko‘proq mahsulot olish uchun ularning biologik xususiyatlarini, postnatal ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish hamda ulardan ratsional foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, quyonchilik tarmog‘idan yuqori sifatli mahsulot yetishtirishda postnatal taraqqiyotning turli fiziologik bosqichlarida quyon organizmida kechadigan morfo-fiziologik o‘zgarishlarni inobatga olish ushbu sohani ilmiy asosda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, quyonlar laboratoriya hayvoni sifatida eksperimental ilmiy-tadqiqot tajribalarini o‘tkazishda ham muhim ahamiyatga ega.

Quyonchilik jahon iqtisodiyoti va iste‘molida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Masalan, Xitoyda quyon go‘sh tashlab chiqarish bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinda turadi. Xitoy quyonchiligida mo‘ynali va tivitli zotlarni parvarishlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Ikkinchi o‘rinni esa Italiya egallaydi. Aholi boshiga quyon go‘sh tashlab chiqarish darajasi (yiliga 5,5-6 kg.) ham italyanlarga tegishli.

Bu ko‘rsatkich Fransiya, Germaniya va Vengriyada 2,5-3 kilogrammni tashkil qiladi va mazkur mamlakatlarda 65 foiz mahsulot klaster usulida ishlab chiqariladi [4, 9].

“Sog‘lom ovqatlanishning zamonaviy tendensiyasi va Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining parhez go‘sh tashlab chiqarish me‘yori xususidagi tavsiyasiga ko‘ra, inson yil davomida iste‘mol qiladigan go‘sh mahsulotlarining 5 foizi, ya‘ni 4,5 kilogrammi quyon go‘sh tashlab chiqarish bo‘yicha kerak”, deyilgan. Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda yurtimiz bozorida nazariy jihatdan yiliga 150 ming tonna quyon go‘sh tashlab chiqarish talab bor [3, 7, 8].

Ma‘lumotlarga ko‘ra, to‘yimlilik bo‘yicha quyon go‘sh tashlab chiqarish 1 kilogrammi eng yaxshi mol go‘sh tashlab chiqarish 1,45 kilogrammiga teng. Shuningdek, uning go‘sh tarkibida xolesterin kamligi bo‘yicha qo‘y, mol va boshqa jonivorlarni kidan farq qiladi. Tarkibidagi oqsilning 90 foizi inson organizmi tomonidan to‘liq o‘zlashtiriladi. U, shuningdek, mineral tuzlarga, kalsiy va fosforiga boy, yaxshi ta‘mga ega. Shu kabi ijobiy xususiyatlari tufayli quyon go‘sh tashlab chiqarish jigar, me‘da, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, qandli diabet, allergiyasi bor insonlarga tavsiya etiladi [2, 5, 6].

Quyonlarning jinsiy voyaga yetgan yoshida ular organizmining fiziologik gomeostazini saqlash qonning antioksidant tizimining fermentlari faolligini o‘zgarishi bilan ro‘y berishi ilmiy tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan [1].

Quyonlar yelka suyagining mikromorfometrik ko‘rsatkichlarini o‘ziga xos xususiyatlari tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, mualliflarning ma‘lumotlariga ko‘ra, uy

quyonlarining oyoq skeleti bo'yicha yozma ma'lumotlari bo'yicha o'ng va chap oyoqlardagi yelka suyagining anatomik tuzilishi jihatidan vizual tafovut aniqlanmagan

Quyonglar yelka suyagining tuzilishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatishi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Suyakning tuzilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri – tana vazni, kurak-yelka bo'g'imining bukish va yozish harakatlari hisoblanadi [9].

Tadqiqotning maqsadi — Kulrang velikan, oq velikan va flandr zotiga mansub quyonglar postnatal ontogenezida yelka suyagining mikromorfometrik o'zgarishlarini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- kulrang velikan, oq velikan va flandr zotiga mansub quyonglar postnatal ontogenezida yelka suyagining dorsal va volyarkompakt modda qalinligi o'sish dinamikasini o'rganish;

- quyonglar yelka suyagining dorsal va palmarkompakt modda qalinligi o'sish koeffitsientini hisoblab, mikromorfometrik dinamikasini tahlil qilish;

- olingan mikromorfometrik ko'rsatkichlarni statistik tahlil qilish va ilmiy asoslash.

Materiallar va metodlar. Ilmiy tekshirish ishlari SamDVMCHBU da "Mega loyiha" doirasida tashkil etilgan vevaryida parvarishlanayotgan kulrang velikan, oq velikan, flandr zotiga mansub quyong bolalarining yelka suyagi ustida olib borildi. Har birida 10 boshdan quyong bolalari bo'lgan 3 ta guruhga ajratildi. Barcha guruh quyong bolalariga bir xil ratsionda oziqa berildi. Morfometrik o'lchamlar tajribaning 1-, 21-, 51-, 81- va 120-kunlarida olindi.

Suyaklarning chiziqli o'lchamlarini aniqlashda N.P.Chirvinskiy tomonidan qo'llanilgan hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti olimlari (D.X.Narziyev, M.X.Allamurodov, A.S.Daminov, R.M.Tashtemirov, N.B.Dilmurodov) tomonidan takomillashtirilgan va joriy qilingan umum morfologik uslublardan foydalanildi.

Ilmiy tekshirishlar natijasida olingan barcha raqamiy ma'lumotlar YE.K.Merkureva uslubi bo'yicha matematik ishlovdan o'tkazildi. Matematik-statistik tahlil Styudent va Fisher mezonlari yordamida kompyuterning Microsoft Excel elektron jadvalida bajarildi.

Natijalar va ularning tahlili. Birinchi guruhdagi kulrang velikan zotli quyonglar yelka suyagi dorsal kompakt modda qalinligining mutloq ko'rsatkichi postnatal ontogenezning 1-kunida $0,042 \pm 0,001$ sm ga teng bo'lib, 21 kunligiga qadar jadal ortishi ($0,074 \pm 0,002$ sm, $p < 0,03$; $K = 1,76$) va keyingi o'rganilgan 120 kunligiga qadar ushbu jarayonni bosqichli tarzda davom etishi, ya'ni 51 kunlikda – $0,11 \pm 0,004$ sm ($p < 0,04$; $K = 1,48$) ga, 81 kunlikda – $0,13 \pm 0,03$ sm ($p < 0,03$; $K = 1,22$) ga, 120 kunlikda – $0,15 \pm 0,002$ sm ($p < 0,02$; $K = 1,09$) ga yetishi kuzatildi. Yelka suyagining mazkur ko'rsatkichini o'sish koeffitsiyenti quyonglarning 1 kunligidan 120 kunligiga qadar bo'lgan davr mobaynida 3,5 martani tashkil etishi aniqlandi.

Yelka suyagi palmarkompakt modda qalinligining mutloq ko'rsatkichi birinchi guruh quyonglar postnatal

taraqqiyotining dastlabki kunligidan 21 kunligiga qadar $0,032 \pm 0,0004$ sm dan $0,06 \pm 0,0013$ sm ($K = 1,92$) gacha ortib borishi, 21 kunlikdan 51 kunlikka qadar birmuncha jadal kechishi ($0,099 \pm 0,003$ sm, $p < 0,03$; $K = 1,58$) va keyingi 120 kunlikkacha davriy ravishda davom etishi, ya'ni 81 kunlikda – $0,118 \pm 0,004$ sm ($p < 0,04$; $K = 1,19$) ga, 120 kunlikda – $0,129 \pm 0,002$ sm ($K = 1,1$) ga yetishi qayd etildi. Suyak palmarkompakt modda qalinligining o'sish koeffitsiyenti postnatal ontogenezning o'rganilgan bosqichlari mobaynida 4,03 martani tashkil etishi aniqlandi.

Ikkinchi guruh – oq velikan quyong yelka suyagi dorsal kompakt modda qalinligi postnatal ontogenezning 1-kunida $0,041 \pm 0,0007$ sm ga teng bo'lib, 21 kunligiga qadar jadal ortishi ($0,072 \pm 0,001$ sm, $p < 0,02$; $K = 1,75$) va keyingi o'rganilgan 120 kunligiga qadar ushbu jarayonni bosqichli tarzda davom etishi, ya'ni 51 kunlikda – $0,108 \pm 0,003$ sm ($p < 0,04$; $K = 1,5$) ga, 81 kunlikda – $0,13 \pm 0,007$ sm ($p < 0,03$; $K = 1,21$) ga, 120 kunlikda – $0,139 \pm 0,002$ sm ($p < 0,02$; $K = 1,06$) ga yetishi kuzatildi. Yelka suyagining mazkur ko'rsatkichini o'sish koeffitsiyenti quyonglarning 1 kunligidan 120 kunligiga qadar bo'lgan davr mobaynida 3,39 martani tashkil etishi aniqlandi.

Yelka suyagi palmarkompakt modda qalinligining mutloq ko'rsatkichi ikkinchi guruh quyonglar postnatal taraqqiyotining dastlabki 1 kunligidan 21 kunligiga qadar $0,032 \pm 0,004$ sm dan $0,058 \pm 0,0013$ sm ($p < 0,03$; $K = 1,81$) gacha ortib borishi, 21 kunlikdan 51 kunlikka qadar bu jarayonni ($0,092 \pm 0,001$ sm, $p < 0,02$; $K = 1,59$) va keyingi 120 kunlikkacha davriy ravishda davom etishi, ya'ni 81 kunlikda – $0,106 \pm 0,004$ sm ($p < 0,03$; $K = 1,14$) ga, 120 kunlikda – $0,129 \pm 0,002$ g; $K = 1,07$) ga yetishi qayd etildi. Suyak palmarkompakt modda qalinligining mutloq o'sish koeffitsiyenti quyonglar postnatal ontogenezining o'rganilgan bosqichlari mobaynida 3,53 martani tashkil etishi aniqlandi.

Yelka suyagi dorsal kompakt modda qalinligining mutloq ko'rsatkichi uchinchi guruh – flandr zotli quyonglar postnatal ontogenezning 1-kunida $0,043 \pm 0,0006$ sm ga teng bo'lib, 21 kunligiga qadar ortishi ($0,076 \pm 0,002$ sm, $p < 0,03$; $K = 1,79$) va keyingi o'rganilgan 120 kunligiga qadar ushbu jarayonni bosqichli tarzda davom etishi, ya'ni 51 kunlikda – $0,116 \pm 0,003$ sm ($p < 0,04$; $K = 1,53$) ga, 81 kunlikda – $0,144 \pm 0,003$ sm ($p < 0,02$; $K = 1,24$) ga, 120 kunlikda – $0,16 \pm 0,002$ sm ($K = 1,1$) ga yetishi kuzatildi. Yelka suyagining mazkur ko'rsatkichini o'sish koeffitsiyenti quyonglarning 1 kunligidan 120 kunligiga qadar bo'lgan davr mobaynida 3,76 martani tashkil etishi aniqlandi.

Yelka suyagi palmarkompakt modda qalinligining mutloq ko'rsatkichi uchinchi guruh quyonglari postnatal taraqqiyotining dastlabki 1 kunligidan 21 kunligiga qadar $0,032 \pm 0,0001$ sm dan $0,062 \pm 0,002$ sm ($p < 0,04$; $K = 1,96$) gacha jadal ortib borishi, 21 kunlikdan 51 kunlikkacha ($0,1 \pm 0,003$ sm; $K = 1,6$) va keyingi 120 kunlikkacha davriy ravishda davom etishi, ya'ni 81 kunlikda – $0,121 \pm 0,002$ sm ($K = 1,22$) ga, 120 kunlikda – $0,133 \pm 0,002$ sm ($p < 0,02$; $K = 1,1$) ga yetishi qayd etildi. Suyak palmarkompakt modda qalinligining o'sish koeffitsiyenti quyonglar postnatal ontogenezining o'rganilgan bosqichlari mobaynida 4,2 martani tashkil etishi aniqlandi.

Demak, quyonlar yelka suyagining dorsal va palmar kompakt modda qalinligining chiziqli o'lchamining mutlaq ko'rsatkichi postnatal ontogeneznining turli fiziologik bosqichlarida o'ziga xos o'zgarish dinamikasini namoyon qilib, ushbu ko'rsatkichlarni quyonlarning zotlari bo'yicha ma'lum tafovutlarga ega bo'ladi.

Xulosa:

– yelka suyagi chiziqli o'lchamlari postnatal ontogeneznining dastlabki kunidan 21 kunlikka qadar bo'lgan davr mobaynida birmuncha jadal ortishi hamda keyingi o'rganilgan bosqichlarda bu jarayon katta og'ishlarsiz davom etishi qayd qilindi;

– yelka suyagining dorsal va palmar kompakt modda qalinligi postnatal ontogeneznining ayniqsa, 21 kunligigacha bo'lgan bosqichlarida 1- va 3-guruh quyonlarda yuqori bo'lishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Александрова В.С. Нормы и рационы кормления кроликов и нутрий Московская область. – 2001. –С. 4-29.
2. Дзержинский Ф.Я. Методические указания по проведению практических занятий по курсу зоологии позво-

ночных для студентов физико-биологического отделения. Моск. гос. ун-т. М. : МГУ, 2000. –С. 26-28.

3. Криштофорова Б.В. Структурно-функциональные особенности ремоделирования костных органов у новорожденных млекопитающих // Известия сельскохозяйственной науки Тавриды, 2016. № 7 (170). –С. 96-101..

4. Лактионов К.С. Физиология питания кроликов и пути повышения степени использования кормов / К.С. Лактионов. - Орел: Орл. ГАУ, -2007. - 164с.

5. Макарец Н. Г. Кормление сельскохозяйственных животных / Н. Г. Макарец. – Калуга: Ноосфера, 2012. – 642 с.

6. Понкратова С.В. Видовые особенности морфологии скелета и мышц с их сосудами и нервами области шей у пушных зверей. Автореф. дисс...канд.биол.наук. Омск, 1999. -24 с..

7. Соколов В.Г. Морфология костного моза у поросят // Известия сельскохозяйственной науки Тавриды, 2015. № 2 (165). –С. 130-136.

8. Якимов О.А. Морфологическое обоснование применения агроминералов млекопитающим животным для коррекции метаболизма и повышения продуктивности: Автореф. дис. ... д-ра биол. наук : 06.01.02 / О.А. Якимов; Екатеринбург, 2006. - 41 с.

Фаргона вилояти.

– Янги ташкил этилган Озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги кўмити раҳбарига бир мурожаатим бор. Эмламаларни ўз вақтида, ҳалол ва диёнатли мутахассислар назорати остида олиб келишни ташкил этишса. Чунки ўтган икки-уч йил ичида оқсил касаллиги тинкамининг куритди, – дейди Ўзбекистон туманидаги “Соҳибкор Тоғай” фермер хўжалиги раҳбари Ўткир Сатторов. – Эмламалар кўнгилдагидек натижа бермади. Фермада сут берадиган 400 бошга яқин наслии қорамолларим бор эди. Ҳозир 100 бош қолди. Оқсил касаллиги чорвага қирон келтирди. Эмламани қиласан, таъсири сезилмайди. Илгари бир йилда икки қарра эмлаш ўтказардик, ҳозир тўрт қарра қилаямиз.

– Тўғри, оқсил касаллигига қарши Туркиядан олиб келинган эмламалар кўнгилдагидек самара бермади. Бунга бошқа фермерлар ҳам таъкидлашмоқда, – дейди Ўзбекистон туман ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими бошлиғи Низомжон Абдуллаев. – Касални яширсанг истимаси ошқор қилади, дейдилар. Ўткир ака ҳақ гапни айтди. Касаллик чорвадорларнинг тинкасини куритмоқда. Шу боис сифатли эмламаларни ўзлари топишга мажбур бўлишяпти. Қани энди илгаригидек Россиянинг эмламалари етказиб берилса. Чунки чорвачилик тараққиётига сиёсатнинг алоқаси йўқ, санкцияга тушадими, тушмайдами, Россиянинг оқсил касаллигига қарши эмламалари юқори натижа берган. Агар янги кўмита раҳбари дори-дармонлару эмламаларни давлатимиз раҳбари тақдор ва тақдор айтаётганидек, ўзимизда ишлаб чиқаришни йўлга қўйишга бош-қош бўлса, бундан давлат ҳам тадбиркорлару чорвадорлар ҳам катта манфаат топади. Бунга салоҳиятимиз ҳам илмий-техник кудратимиз ҳам етади. Агар дастлабки босқичда яхши пул тўланса, дунёнинг нарғи четидидаги энг зўр мутахассис ҳам нима ёрдам деб югуриб келади. Бозор талаби, қондаси шундай. Ақлли ва тадбирли одамни тан олади. Фақат баҳонага ўрин қолдирмай астойдил ишга киришиш керак. Чунки аҳвол шу тарзда сақланиб қолаверса, гўштни ҳам, сут маҳсулотларини ҳам янада кўпроқ импорт қилишимизга тўғри келади. Элимизда шундай гап бор: “Қўлдан берганга қуш тўймайди”. Бундан буён озиқ-овқат ва чорвачилик маҳсулотлари ўзимизда ишлаб чиқарилмас экан, уни четдан ташиб ё импорт қилиб бозорни тўлдириб ё арзон қилиб, тақчилликни бартараф этиб бўлмайди.



Севинч Эргашева.

UDK: 619.97:612.015.31

ITLAR PAXIT KASALLIGINI DAVOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bektanova Habiba Nurkabilovna, *tayanch doktorant (PhD),*
Qurbon Norboyev Norboyevich, *v.f.d., professor;*
Yulchiyev Jasur Baxodirovich, *PhD, dotsent,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot itlarda uchraydigan paxit kasalligini davolash usullarini takomillashtirishga bag'ishlangan. Tadqiqotda kasallikning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, diagnostika usullari va zamonaviy davolash yondashuvlari tahlil qilinadi. Mavjud davolash usullarining samaradorligi baholanib, ularni optimallashtirish imkoniyatlari o'rganiladi. Kompleks davolash sxemalarini qo'llash, dori vositalarini oqilona tanlash hamda profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish orqali davolash samaradorligini oshirish maqsad qilingan. Tadqiqot natijalari veterinariya amaliyotida kasallikni erta aniqlash, samarali davolash va asoratlarning oldini olishga xizmat qiladi hamda itlarning sog'lig'ini saqlashda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Kalsiy, fosfor, paratiroid gormon, ionogalvanizatsiya, rentgenogramma, regeneratsiya, metabolik atsidoz.

Аннотация: Данное исследование посвящено совершенствованию методов лечения заболевания пахит у собак. В работе рассматриваются причины возникновения заболевания, его клинические признаки, современные методы диагностики и лечения. Проведен анализ эффективности существующих терапевтических подходов и определены возможности их оптимизации. Особое внимание уделено комплексному лечению, рациональному применению лекарственных средств и совершенствованию профилактических мероприятий. Предлагаемые методы направлены на повышение эффективности лечения, сокращение сроков выздоровления и предупреждение осложнений. Полученные результаты могут быть использованы в ветеринарной практике для ранней диагностики, эффективного лечения заболевания и сохранения здоровья собак.

Ключевые слова: кальций, фосфор, паратиреоидный гормон, ионогальванизация, рентгенограмма, регенерация, метаболический ацидоз.

Abstract: This study focuses on improving treatment methods for rickets disease in dogs. The research examines the causes, clinical signs, diagnostic approaches, and current treatment strategies for the disease. The effectiveness of existing therapeutic methods is evaluated, and opportunities for their optimization are identified. Special attention is given to comprehensive treatment protocols, rational drug selection, and improved preventive measures. The proposed approaches are aimed at increasing treatment success, reducing recovery time, and preventing complications. The findings of this study can contribute to veterinary practice by enhancing early diagnosis, improving treatment outcomes, and supporting the overall health and welfare of dogs through evidence-based clinical management.

Keywords: calcium, phosphorus, parathyroid hormone, ionogalvanization, radiograph, regeneration, metabolic acidosis.

Kirish. Hozirgi kunda respublikamizda raxit kasalligi faqat insonlarda emas, hayvonlar orasida ham tez-tez uchrab turishi kuzatilmoqda. Xususan, it va mushuklar, buzoq va qo'zilar orasida kasallikning yildan yilga ko'payib borayotgani bu sohada tibbiyot va veterinariya mutaxassislari hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borishga undaydi. Ammo ushbu sohani rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar hozirgi vaqtda to'liq bartaraf etilmaganligi sababli o'sish yoshidagi itlarda xizmat vazifalarini bajarishda qiyinchilik tug'ilishiga olib kelmoqda. Natijada pitomniklarda tarbiyalanayotgan zotdor itlarning xizmat vazifalarini bajarishga katta to'sqinlik qilishiga olib keladi.

Tadqiqot maqsadi. Tajribadagi raxit bilan kasallangan itlarda klinik tekshirishlar, maxsus rentgenologik tekshirishlardan o'tkazilib, shu asosida davolashning samarali usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi. Itlarda raxitning kelib chiqish sabablarini o'rganish, klinik belgilari va rentgenologik o'zgarishlarni tahlil qilish, mavjud davolash usullarini tahlil qilish, ratsiondagi vitaminli-mineral preparatlar samaradorligini aniqlash va kompleks davolash tartibini ishlab chiqish.

Raxit – yosh hayvonlarda, jumladan, itlarda uchraydigan modda almashinuvi buzilishi bilan kechuvchi surunkali kasallik bo'lib, asosan D vitamini, kaltsiy va fosfor yetishmovchiligi natijasida rivojlanadi. Raxit kasalligida suyak to'qimalarida minerallanish jarayoni izdan chiqishi oqibatida

skelet tizimida turli deformatsiyalar kuzatiladi. Raxit ko'proq tez o'suvchi yosh kuchuklarda uchraydi.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashicha, raxit polietilogik kasallik hisoblanadi. Kasallik rivojlanishida noto'g'ri oziqlantirish, quyosh nurining yetishmasligi, kamharakatlik, mineral moddalar tanqisligi va ichki a'zolar faoliyati buzilishi bilan kechadigan kasallikdir. [1,2,10,9] Raxit kasalligida suyak to'qimasida distrofik o'zgarishlar va surunkali kechadigan kasallik bo'lib, u ossifikatsiyaning buzilishi, osteoid to'qimaning haddan tashqari ko'payishi, suyaklarning tugallangan sohalarida matseratsiya va atrofiya belgilari kuzatilishi bilan tavsiflanadi. [3,4,6,11]

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra kasallikning dastlabki bosqichlarida u bilan kurashish juda oson. Ko'pgina hollarda, itning ratsioni muvozanatli dietaga o'zgartirilsa itlarda bir oy ichida o'zgarish kuzatiladi. Agarda skeletda sezilarli o'zgarishlar bo'lsa yoki kuchukchalar allaqachon katta bo'lsa, dori-darmonlar va kaltsiy, D vitamini qo'shimchalarini ultrabinafsha nurlanish bilan birgalikda kompleks davolash kerak bo'ladi. Itga muntazam ravishda tinch, shoshilmasdan yurish tavsiya etiladi, chunki zaiflashgan hayvon kasal suyaklarga qo'shimcha stressni talab qilmaydi. Shu bilan birga faol matsion foydalidir, chunki muskullarni kuchaytiradi. Kuchli muskullar suyaklar egriligining oldini oladi. [5,6,7].

Tekshirish obyekti va uslublari. Tadqiqotlar 2023-2025-yillar davomida Samarqand shahar va unga tutash bo'li-



1-rasm. Tajriba guruhlarini shakllantirish

gan aholi qaramog'idagi kasal itlarda va Samarqand viloyat obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli qarovsiz kasal itlar pitomnigi sharoitida bajarildi. Tadqiqotlar obyekti sifatida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti vivariysida "o'xshash juftliklar" tamoyili asosida yoshi va zoti bir xil bo'lgan 9 bosh it bolalari tanlab olinib, 3 boshdan 3 ta guruhga: I tajriba guruh, II tajriba guruh va III nazorat guruhlariga ajratib olindi. Tajribalarimiz boshida dastlab itlarda gelmentizatsiya ishlari olib borilgandan so'ng umumiy klinik tekshiruv, biokimyoviy qon tekshiruv va rentgen tekshiruvlari o'tkazildi.

Tadqiqotlarimiz dastlab kasal itlarni davolanishidan oldin va keyin biokimyoviy tahlil uchun qon namunalari olinib, ko'rsatkichlar (Ca, P, vitamin D₃, Paratgarmon, ishqoriy fosfataza, umumiy oqsil) eritrotsitlar soni, gemoglobin miqdorlari aniqlandi. Tadqiqotlar Roche Diagnostika firmasi (Shvetsariya) tomonidan ishlab chiqarilgan Cobas C 311, Roche Cobas e 411 biokimyoviy analizatorida "Human" (Germaniya), "diakon" (Rossiya) reaktivlarida tekshirildi.

I tajriba guruhidagi raxit bilan kasallangan itlar quyidagicha davolandi: 30 kun davomida Club 4 paws (vitaminlashtirilgan maxsus granula) ozuqasidan har kuni 1 boshga 50-60 gramm, 30 kun davomida vitaminlashtirilgan baliq yog'i (1 ml da 1000 ME-vit A, 100 ME-vit D) 5 ml dan 1 mahal og'iz orqali, 30 kun davomida KALSIY-D3 (1 tabletkada: D3-1500 XB, CaCO₃ -600 mg, Kalsiy sitrat 5 mg. Askarbin kislata 40 mg) 1 tabletkadan 1 mahal og'iz orqali,

har 10 kunda Miopets immunomodulyatoridan 1,0 ml m/o inyeksiya qilib borildi. 20 kun davomida Sun'iy lampa o'rta to'liq uzunlikdagi ultrabinafsha nur, D vitaminini D₂ va D₃ ga aylantirish bilan organizmda kalsiy-fosfor almashinuviga ta'sir etadi.

Ultramig 311 P rusumdagi nurlatgich lampani qo'llash texnikasiga asoslanib 1,5 metr uzoqlikda dastlab 1-kun 2 minut, 2 kun- 4 minut shu tarzda 2-3 minutdan 15 minutga oshirib borildi va bir davolash kursi 12 seans bo'ldi.

II tajriba guruhidagi raxit bilan kasallangan itlar quyidagi tartibda davolandi: 30 kun davomida Club 4 paws ozuqasidan har kuni 1 boshga 1 mahal 50-60 grammdan, 30 kun davomida vitaminlashtirilgan baliq yog'i (1 ml da 1000 ME-vit A, 100 ME-vit D) - 5 ml dan 1 mahal og'iz orqali, 30 kun davomida KALSIY-D3 (1 tabletkada: D3-1500 XB, CaCO₃ -600 mg, Kalsiy sitrat 5 mg. Askarbin kislota 40 mg) 1 tabletkadan 1 mahal og'iz orqali, 30 kun davomida Dostim immunomodulyatoridan kun ora 1,0 ml dan m/o inyeksiya qilib borildi. 20 kun davomida.

Ionogalvanizatsiya Potok-1M rusumdagi apparat orqali organizmga 5% CaCl₂ eritmasini ion holatda patologik jarayon kechayotgan sohaga manfiy va musbat zaryadlanuvchi elektrodnlarni 15 daqiqa ushlab turish orqali davolandi. II nazorat guruhidagi raxit bilan kasallangan itlar esa 30 kun davomida pitomnikda beriladigan ozuqalar bilan parvarish qilindi. Ratsioniga qo'shimcha dori vositalar berilmadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tajribadagi kasal itlarni klinik tekshirganda quyidagi belgilar: barcha guruhidagi itlarda kasallik ishtahani buzilishi, yog'och buyumlarni, devorlarni, mebellarni chaynash holatlari kuzatildi. Keyinchalik ovqat hazm qilish jarayonlari buzilishi, ich qotish yoki ich ketish rivojlandi. Jun qoplamasining yaltiroqligi pastligi, dag'al va sinuvchan bo'lishi, shilliq pardalarda oqarish, tez-tez o'tirishi yoki yotishi, oyoqlarda qaltirash, yurganda gandaraklash belgilari kuzatildi. Tengdoshlariga nisbatan jussasi kichik, qorni katta, tish emal qavatining o'zgarishi, tish rangi kulrang, ba'zan sarg'ish rangda bo'lishi, oyoqlarda egrilik, oyoqlarning zaifligi kuzatilib, yurish keskinlashdi, oqsoqlanish rivojlandi. Bo'g'imlarning qalinlashishi paydo



2-rasm. Tajribadagi itlarning rentgenodiagnostikasi



**3-rasm. Potok-1M rusumdagi apparat orqali
Ionogalvanizatsiya qilish**

bo'ldi, palpatsiya paytida ularning og'rig'i, old oyoqlarning dorsal fleksiyasi qayd etildi. Suyaklarning egriligi va valgus (x shaklidagi), varus (o shaklidagi) deformatsiyalar kuzatildi. Kasal kuchukchalar harakatsiz bo'lib, ko'proq yotishi, tengdoshlariga qaraganda rivojlanishda orqada qolishi kuzatildi. Ba'zi guruhdagi itlarda raxit yengil bosqichda kechib deyarli sezilmadi, ularda gastroenterit va bronxopnevmoniya belgilari kuzatilishi aniqlandi.

Tajribadagi itlarning klinik ko'rsatkichlari o'rganish shuni ko'rsatadiki, 1-tajriba tana harorati tajriba boshida o'rtacha $37,3 \pm 0,02$ °C ni, tajriba o'rtasiga borib $38,1 \pm 0,07$ °C ni, tajriba oxiriga borib, $38,5 \pm 0,05$ °C tashkil etdi. 2-tajriba guruhda mos holda $37,8 \pm 0,05$ °C, $38,5 \pm 0,06$ °C, $38,8 \pm 0,02$ °C ni tashkil etdi. Nazorat guruhida $38,9 \pm 0,02$ °C, $39,1 \pm 0,05$ °C va $38,3 \pm 0,07$ °C ni ($P < 0,05$) tashkil etdi.

1 daqiqadagi puls soni 1 guruhda tajriba boshida o'rtacha (me'yorda 1 daqiqa 70-120 marta) $112 \pm 0,52$ marta, tajriba o'rtasida $102 \pm 0,23$ va oxirida $96 \pm 0,54$ martani tashkil qildi. Mos holda 2-guruhda $108 \pm 0,18$, $105 \pm 0,27$ va $99 \pm 0,42$ tashkil etdi. Nazorat guruhida o'rtacha $110 \pm 0,68$, $105 \pm 0,45$ va $96 \pm 0,36$ ni ($P < 0,05$) tashkil etdi. Barcha guruhlarga nisbatan 2-tajriba guruhda klinik ko'rsatkichlar boshqa guruhlarga nisbatan yaxshiroq bo'lganligi aniqlandi.

1 daqiqadagi nafas soni 1-guruhda tajriba boshida o'rtacha (me'yorda 1 daqiqa 30-50 marta) $44 \pm 1,52$ martani, tajriba o'rtasida $42 \pm 0,95$ va oxirida $41 \pm 0,84$ martani tashkil qildi. 2 guruhda mos holda $46 \pm 1,25$, $43 \pm 0,92$ va $39 \pm 0,81$ tashkil etdi. Nazorat guruhda o'rtacha $44 \pm 0,79$, $45 \pm 1,03$ va $44 \pm 0,72$ ni ($P < 0,05$) tashkil etdi.

Tajribadagi kasal itlar tana vaznining keskin pasayishiga to'yib ovqatlanmaslik, ishtahaning pasayishi va modda almashinuvi buzilishi tufayli yuzaga keladi. Bundan kelib chiqadiki, raxit nafaqat organizmida D vitamini yetishmovchiligi, kaltsiy-fosfor almashinuvi buzilishidan, balki barcha organlar va tizimlarning morfologik va funksional buzilishidan ham kuzatiladi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra birinchi tajriba guruhdagi itlarda davolashning 10 kunigacha kasallik belgilari o'zgarishsiz davom etdi va davolashning 15-20 kunga kelib itlarning ahvoli sezilarli darajada o'zgardi. Bunda shilliq pardalar va terining oqarishi, harakatlanishda qiyinchilik tug'ilishi va tana vaznining pasayishi alomatlarini yo'qolgani, 30 kunga kelib, aktiv harakat, ishtahaning oshishi, oyoqlarning panja qismining ichkariga qarab egrilishi holati nisbatan to'g'rilandi va natijada oqsoqlanish belgilari sezilarli darajada kuzatilmadi, tana vaznining tengdoshlariga nisbatan 1,100 kg ga oshganligi tajriba davomida aniqlandi.

Ikkinchi tajriba guruhdagi itlarda tajribaning 10-kunigacha kasallik belgilari o'zgarishsiz davom etdi va davolashning 15-20 kunga kelib, ishtahaning oshishi, harakat, shilliq pardalarda och pushti rangga kirishi, yurak urish va nafas olish, tana harorati me'yorga yaqinlashishi kuzatilib, davolashning 30 kuniga kelib kasal itlarda tishlarning emal qismi mustahkamlanishi, oyoqlarning bilak-tirsak sohasidagi egrilik yo'qolib, yurganda oqsoqlanish kuzatilmadi, bo'g'imlarning o'z holatiga kelishi, shilliq pardalari och pushti rangga kirishi, nafas olish va yurak urishi soni



4-rasm. Tajriba jarayonlari

me'yorlashganligi va tana vaznining 1,5 kg oshganligi aniqlandi.

Nazorat guruhidagi itlarda tajriba davomida tashqi klinik belgilar o'zgarishsiz qoldi.

Xulosa.

1. Tajriba boshida barcha guruhlardagi raxit bilan kasallangan itlarni klinik tekshirganda ishtahaning pasayishi va buzilishi, tishning o'zgarishi, oyoqlarda oqsoqlanishning mavjudligi, harakatlanishda qiyinchilik tug'ilishi, suyaklardagi (umurtqa pog'onasi va naychali suyaklarning egriligi, qalinlashishi va bo'g'imlarning og'rig'i) o'zgarish, shilliq pardalar va terining oqarishi, tushkunlik, qo'zg'alish, tashqi ta'sirlarga javob bermaslik, tana harorati, yurak urish tezligi va nafas olish, o'sish va rivojlanishning kechikishi, tana vaznining pasayishi belgilari aniqlandi. Kasallikka qon namunalari va rentgen tekshirishlarga asoslanib tashxis qo'yildi.

2. Itlarning raxit kasalligini davolashda Miopets immunomodulyatoridan (har 10 kunda 1 marta 1,0 ml m/o) va Dostim immunomodulyatoridan (30 kun davomida kun ora 1,0 ml dan m/o) inyeksiya qilinganda hamda Ultramig 311 P rusumdagi sun'iy lampani qo'llash (1,5 metr uzoqlikda dastlab 1- kun 2 minut, 2 kun- 4 minut shu tarzda 2-3 minutdan 15 minutga oshirib borildi va bir davolash kursi 12 seans), Ionogalvanizatsiya Potok-1M rusumdagi apparat orqali organizmga 5% CaCl₂ eritmasini ion holatdagi dorini oyoqlarda 15 daqiqadan ushlab turish texnikasiga qo'llanilganda davolash muddatini 8-10 kunga qisqartirishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bektanova H., Q.N.Norboyev (2022) Yosh itlarda raxit belgilari va gematologik ko'rsatkichlari. "Veterinariya meditsinasi" ilmiy ommabop jurnali № 5. B.14-16
2. Владимирова Д. (2009) Состояние органического и минерального компонента органов и тканей у здорового и больного рахитом щенят: дис. канд. вет. наук. – Саратов, – 141 с.
3. Дерезина Т. (2006) Изменения в организме поросят при рахите // Животноводство России. – № 10. – С. 31.
4. Осичкин П.В. Рахит у собак и щенков (2015) [Электронный ресурс]. – Medvet. – Режим доступа: <https://www.belanta.vet/vet-blog/raxit-u-sobak-shhenkov/>
5. Abrams S. A. (2013) *Calcium and vitamin D requirements of enterally fed preterm infants* // Pediatrics. – Vol. 131. – P. e1676–e1683.
6. Grünberg, Walter. (2022) "Rickets in Animals - Musculoskeletal System." Merck Veterinary Manual, 6-7. <https://www.merckvetmanual.com/musculoskeletal-system/dystrophies-associated-with-calcium-phosphorus-and-vitamin-d/rickets-in-animals>.
7. Levine M. A. (2020) *Diagnosis and Management of Vitamin D Dependent Rickets* // Frontiers in Pediatrics. – Vol. 8. – Art. 315. – DOI: 10.3389/2020.00315.
8. Mellanby, R. J, Clarke K. E., Hurst E. A (2021). *Vitamin D metabolism and disorders in dogs and cats*. Journal of Small Animal Practice, 62, 935–947. <https://doi.org/10.1111/jsap.13401>
9. Holic. M. F. (2006) *Resurrection of vitamin D deficiency and rickets* // Journal of Clinical Investigation. – Vol. 116. – P. 2062–2072.
10. Mahajan P Nield L. S., Joshi A., Kamat D. (2006) *Rickets: Not a Disease of the Past* // American Family Physician. – Vol. 74, № 4. – P. 619–626.
11. Mersch J. Rickets (2010) (Calcium, Phosphate, or Vitamin D Deficiency) [Electronic resource]. 2. 7-10.

МЕХНАТИМИЗ ҚАДР ТОПСА БАС

Бозор тўкин, сотувчи ҳам, харидор ҳам хурсанд. Муҳими, тинчлик, хотиржамлик бор. Қонунни бузмасанг, хушмуомала бўлсанг бас ҳеч ким асабингни бузмайди, аксинча савдосидан қўнгли тўлганлар деҳқону боғбоннинг, чорвадору тадбиркорнинг отасига раҳмат, дейди. Қўтаринки кайфият эса кимга ёкмайди дейсиз. Бу ҳолни Янгийўл деҳқон бозорида бўлган кун мамнун ҳолда кузатдик. Аҳоли манфаатини қўзлаб қайта бунёд этилган бозор расталари маҳсулотга тўла, бу ердан ҳамма яхши нарсаларни топса бўлади, ёзнинг тўкинчилиги кўзни қувонтиради. ВСЭЛ мудири Маъмуржон Нурбоевнинг таъкидлашича, Озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги қўмитаси ташкил этилиши ва ветеринария, ўсимликлар карантини, санитария ошо-йишталлиги хизматларининг ягона бошқарувга бирлашуви деҳқон бозорларидаги сифатсиз маҳсулотларга буткул чек қўяди. Чунки бу тизимларнинг ҳар бирида етук мутахассислар ишлаяпти. Керакли асбоб-ускуналар бор, фақат уларни замонавийларига алмаштириш керак. Ана шунда иш жараёни ва сифати янада тезлашади.

– Ҳар қандай хизматнинг нуфузини билимдон мутахассислар шижоати белгилайди. Агар университетда ўқиётган талабалар амалиётда чиникса, китобларда ўқигани, лекцияларида тинглаганини бевосита таҳлил жараёнида кўрса, бунинг натижадорлиги бекиёс бўлади. Ана шу сабабли ВСЭЛга иш ўрганиш, малака ошириш учун келаётган ҳар бир ёшни қаттиқ синовдан ўтказаямиз. Билмаганини ўргатиб, тинимсиз изланишга ундаямиз, – дейди Маъмуржон Нурбоев. – Ўйлайманки, бизни қўлимизда тарбия топган ёшлар келажакдаги фаолиятида асло қоқилмайди. Манфаатдорликка келсак, янги қўмита раҳбари албатта мутахассисларнинг маошларини кўтаришга, намунали хизмат кўрсатганларга мукофотлар беришга имкон топади.

Тасвирда ВСЛ мудири Маъмуржон Нурматов ва СЭО ва ЖСБ шифокори Ҳасан Исроилов.

Сардорбек.



UO‘K. 591.471.35:587.482.6

TURLI ZOTLI QUYONLAR SON SUYAGI ILIK BO‘SHLIG‘I BALANDLIGINING O‘ZGARISH DINAMIKASIGA HARORAT STRESSNING TA’SIRI

X.B.Yunusov, b.f.d., professor;

N.B.Dilmurodov, v.f.d., professor;

Z.R.Mirzoyev, assistant,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Kulrang velikan, oq velikan va flandyer zotiga mansub quyonlar postnatal ontogenezida son suyagi ilik bo‘shlig‘i balandligining o‘zgarish xususiyatlari optimal, me‘yordan yuqori va past haroratlarda o‘rganilgan. Son suyagi ilik bo‘shlig‘i balandligining mutloq ko‘rsatkichi quyonlar postnatal rivojlanishining 51 kunligidan keyingi bosqichlarda jadal ortishi va bu holat proksimal va distal g‘ovak moddasining yemirilishi bilan bog‘liq ravishda kechishi kuzatilgan. Son suyagi ilik bo‘shlig‘i balandligining mutloq ko‘rsatkichi optimal haroratda ayniqsa, postnatal ontogenezning dastlabki kunidan 21 kunligiga qadar kulrang velikan va flandyer zotli quyonlarda oq velikan zotli quyonlarga nisbatan yuqori bo‘lishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: quyon, kulrang velikan, oq velikan, fland; optimal harorat, past harorat, yuqori harorat, son suyagi, postnatal ontogenez, ilik bo‘shlig‘i balandligi, o‘sish koeffitsiyenti, chiziqli o‘lcham.

Аннотация. Изучены особенности изменения высоты костномозговой полости бедренной кости у кроликов пород серый великан, белый великан и фландр в постнатальном онтогенезе при оптимальной, повышенной и пониженной температурах окружающей среды. Установлено, что абсолютная высота костномозговой полости бедренной кости наиболее интенсивно увеличивалась после 51-го дня постнатального развития кроликов, что было связано с резорбцией проксимального и дистального губчатого вещества. Выявлено, что абсолютная высота костномозговой полости бедренной кости была больше при оптимальной температуре, особенно в период с 1-го по 21-й день постнатального онтогенеза у кроликов пород серый великан и фландр по сравнению с кроликами породы белый великан.

Ключевые слова: кролик, серый великан, белый великан, фландр, оптимальная температура, низкая температура, высокая температура, бедренная кость, постнатальный онтогенез, высота костномозговой полости, коэффициент роста, линейные размеры.

Abstract. The characteristics of changes in the femur medullary cavity height were studied in Gray Giant, White Giant, and Flemish rabbits during postnatal ontogenesis at optimal, elevated, and reduced environmental temperatures. It was found that the absolute height of the femur medullary cavity increased most rapidly after the 51st day of postnatal development, which was associated with resorption of the proximal and distal cancellous bone. It was found that the absolute height of the femur medullary cavity was greater at the optimal temperature, especially from the 1st to the 21st day of postnatal ontogenesis in Gray Giant and Flemish rabbits compared to White Giant rabbits.

Keywords: rabbit, Grey Giant, White Giant, Flanders, optimal temperature, low temperature, high temperature, femur, postnatal ontogenesis, bone marrow cavity height, growth coefficient, linear dimensions.

Mavzuning dolzarbligi. Aholining go‘sh, ayniqsa, parhezboq go‘sh mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda quyonchilik tarmog‘ining o‘rni yuqori bo‘lib, quyonlardan to‘g‘ri foydalanishda, avvalambor ularning biologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish talab etiladi.

Suyaklar nafaqat tayanch-harakat funksiyasini bajaradi, balki organizmda uzluksiz kechadigan moddalar almashinuvi jarayoni uchun muhim bo‘lgan makro-, mikroelementlarning deposi hamdir. Skelet tarkibidagi proksimal naysimon suyaklar gavdaning asosiy og‘irlik yuki tushadigan, shuningdek, oyoqlarning proksimal sohasida joylashgan muskullarning distal sohadagiga qaraganda birmuncha taraqqiylashganligi suyaklarga ta’sir kuchining yuqori bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston sharoitida urchitilayotgan turli zotli quyonlar oyoqlari proksimal naysimon suyaklarining makroanatomik, mikroanatomik hamda asosiy kimyoviy ko‘rsatkichlarini postnatal ontogenezning har xil fiziologik bosqichlarida o‘zgarishlari va ularga me‘yorga nisbatan yuqori va past haroratning ta’sirini aniqlash muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sog‘lom ovqatlanishning zamonaviy tendensiyasi va Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining parhez go‘sh iste’mol qilish me‘yori xususidagi tavsiyasiga ko‘ra, inson yil davo-

mida iste’mol qiladigan go‘sh mahsulotlarining 5 foizi, ya’ni 4,5 kilogrammi quyon go‘sh, bo‘lishi kerak” deyilgan. Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, hozirgi kunda yurtimiz bozorida nazariy jihatdan yiliga 150 ming tonna quyon go‘shiga talab bor [3, 7, 8,14].

Ma’lumotlarga ko‘ra, to‘yimlilik bo‘yicha quyon go‘shining 1 kilogrammi eng yaxshi mol go‘shining 1,45 kilogrammiga teng. Shuningdek, uning go‘sh tarkibida xolesterolin kamligi bo‘yicha qo‘y, mol va boshqa jonivorlarnikidan farq qiladi. Tarkibidagi oqsilning 90 foizi inson organizmi tomonidan to‘liq o‘zlashtiriladi. U, shuningdek, mineral tuzlarga, kalsiy va fosforga boy, yaxshi ta’mga ega. Shu kabi ijobiy xususiyatlari tufayli quyon go‘sh, jigar, me‘da, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, qandli diabet, allergiyasi bor insonlarga tavsiya etiladi [2, 5, 6, 11, 12, 13].

Quyonlarning jinsiy voyaga yetgan yoshida ular organizmining fiziologik gomeostazini saqlash qonning antioksidant tizimining fermentlari faolligini o‘zgarishi bilan ro‘y berishi ilmiy tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan [1, 9, 10].

Quyonlar son suyagining tuzilishiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatishi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Suyakning tuzilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri – tana vazni, toson bo‘g‘imining aylantirish, bukish va yozish harakatlari hisoblanadi [15, 17].

Tadqiqotning maqsadi: kulrang velikan, oq velikan va flandr zotiga mansub quyonlar postnatal ontogenezida son suyagining mikromorfometrik o'zgarishlarini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- kulrang velikan, oq velikan va flandr zotiga mansub quyonlar postnatal ontogenezida son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining o'shish dinamikasini o'rganish;
- optimal, yuqori va past harorat sharoitida saqlangan quyonlarning son suyagi ilik bo'shlig'i balandligini o'zgarish dinamikasini tahlil qilish;
- olingan mikromorfometrik ko'rsatkichlarni statistik tahlil qilish va ilmiy asoslash.

Materiallar va metodlar. Ilmiy tekshirish ishlari SamDVMCHBU “Mega loyiha” doirasida tashkil etilgan vivariyda parvarishlanayotgan kulrang velikan, oq velikan, flandr zotiga mansub quyon bolalarining son suyagi ustida olib borildi. Har birida 10 boshdan quyon bolalari bo'lgan 3 ta guruhga ajratildi. Barcha guruh quyon bolalariga bir xil ratsionda oziqa berildi. Morfometrik o'lchamlar tajribaning 1-, 21-, 51-, 81-, va 120-kunlarida olindi.

Suyakning chiziqli o'lchamlarini aniqlashda N.P.Chirvinskiy tomonidan qo'llanilgan hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti olimlari (D.X.Narziyev, M.X.Allamurodov, A.S.Daminov, R.M.Tashtemirov, N.B.Dilmurodov) tomonidan takomillashtirilgan va joriy qilingan umummorfologik uslublardan foydalanildi.

Ilmiy tekshirishlar natijasida olingan barcha raqamli ma'lumotlar Ye.K.Merkureva uslubi bo'yicha matematik ishlovdan o'tkazildi.

Matematik-statistik tahlil Student va Fisher mezonlari yordamida komp'yuterning Microsoft Excel elektron jadvalida bajarildi.

Natijalar va ularning tahlili. Ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida kulrang velikan, oq velikan va flandr zotli quyonlar oyoqlari proksimal naysimon suyaklari ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq ko'rsatkichlari postnatal ontogenezning bir kunligidan 120 kunligiga qadar bo'lgan fiziologik bosqichlarda o'ziga xos o'zgarish dinamikasini namoyon qilishi kuzatildi.

Kulrang velikan zotli quyonlar son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq ko'rsatkichi postnatal ontogenezning dastlabki kunidan 81 kunligiga qadar jadal ortishi va 21 kunlikdacha $1,2 \pm 0,03$ sm dan $2,23 \pm 0,03$ sm ($K=1,86$; $p<0,02$) gacha, 51 kunlikda $4,3 \pm 0,13$ sm ($K=1,93$) gacha, 81 kunlikda $7,03 \pm 0,07$ sm ($K=1,63$) gacha ko'tarilib borishi, 120 kunlikda bu ko'rsatkichning o'sish jadalligi sekinlashishi ($10,05 \pm 0,16$ sm; $K=1,43$) qayd etildi. Son suyagi ilik bo'shlig'i balandligi mutlaq ko'rsatkichining o'sish koeffitsiyenti kulrang velikan zotli quyonlar postnatal rivojlanishining bir kunligidan 120 kunligigacha 8,4 martagacha ortishi aniqlandi.

Oq velikan zotli quyonlar son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq o'lchami postnatal rivojlanishining dastlabki kunida $1,04 \pm 0,015$ sm ga teng bo'lib, 21 kunlikda $2,05 \pm 0,05$ sm ($K=1,97$; $p<0,03$) gacha, 51 kunlikda $3,96 \pm 0,09$ sm ($K=1,93$) gacha, 81 kunlikda $6,48 \pm 0,05$ sm ($K=1,63$) gacha jadal ko'tarilib borishi hamda 120 kunlikda o'sish tezligining kichik yoshdagiga nisbatan sustlashishi ($8,79 \pm 0,02$ sm; $K=1,35$) kuzatildi. Son suyagining ilik bo'shlig'i balandligi mutlaq ko'rsatkichining o'sish koeffitsiyenti oq velikan quyonlari postnatal taraqqiyotining 1 kunligidan 120 kunligiga qadar 8,45 martagacha ko'tarilishi qayd etildi.

Son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq ko'rsatkichi flandr zotli quyonlar postnatal ontogenezining dastlabki kunidan 51 kunligiga qadar jadal ko'tarilishi va 21 kunlikdacha $1,3 \pm 0,013$ sm dan $2,4 \pm 0,06$ sm ($K=1,81$) gacha, 51 kunlikda $5,43 \pm 0,1$ sm ($K=2,26$; $p<0,02$) gacha ortishi, keyingi o'rganilgan yoshlarda kichik yoshdagiga nisbatan sezilarli og'ishlarsiz ko'tarilib borishi, ya'ni 81 kunlikda $9,16 \pm 0,23$ sm ($K=1,68$; $p<0,03$) ga, 120 kunlikda $11,4 \pm 0,15$ sm ($K=1,24$) ga yetishi qayd etildi. Flander zotli quyonlar postnatal ontogenezining bir kunligidan 120 kunligiga qadar son suyagi ilik bo'shlig'i balandligi mutlaq ko'rsatkichining o'sish koeffitsiyenti 8,6 martaga teng bo'lishi aniqlandi.

Yuqori harorat sharoitida saqlangan kulrang velikan zotli quyonlar son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq o'lchami postnatal ontogenezining dastlabki kunida $1,2 \pm 0,03$ sm bo'lib, 21 kunligida $2,19 \pm 0,06$ sm ($K=1,82$; $p<0,03$) gacha, 51 kunlikda $4,14 \pm 0,14$ sm ($K=1,89$) gacha, 81 kunlikda $6,6 \pm 0,25$ sm ($K=1,59$) gacha jadallik bilan ko'tarilib borishi kuzatildi. Son suyagi ilik bo'shlig'i balandligi mutlaq ko'rsatkichining o'sish koeffitsiyenti quyonlar postnatal taraqqiyotining 1 kunligidan 120 kunligigacha bo'lgan davr ichida 7,68 martagacha ortishi qayd etildi.

Son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq o'lchami yuqori harorat ta'sir ettirilgan oq velikan zotli quyonlar postnatal ontogenezining dastlabki kunidan 51 kunligiga qadar birmuncha jadal ko'tarilib, 21 kunlikda $1,04 \pm 0,015$ sm dan $1,9 \pm 0,09$ sm ($K=1,83$) ga 51 kunlikda $3,56 \pm 0,2$ sm ($K=1,86$) ga yetishi hamda keyingi yoshlarda ushbu jarayonning bosqichli tarzda davom etishi va 81 kunlikda $5,68 \pm 0,2$ sm ($K=1,59$) ga, 120 kunlikda $7,79 \pm 0,35$ sm ($K=1,37$) ga yetishi aniqlandi. Son suyagi mazkur ko'rsatkichining o'sish koeffitsiyenti quyonlar postnatal taraqqiyotining 1 kunligidan 120 kunligigacha bo'lgan davr davomida 7,49 martagacha ortishi qayd etildi.

Son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq ko'rsatkichi yuqori harorat sharoitidagi flandr zotli quyonlarning bir kunligida $1,29 \pm 0,03$ sm bo'lib, 21 kunlikda $2,19 \pm 0,06$ sm ($K=1,8$) gacha, 51 kunlikda $4,14 \pm 0,13$ sm ($K=1,89$) gacha, 81 kunlikda $6,6 \pm 0,25$ sm ($K=1,59$) gacha, 120 kunlikda $9,22 \pm 0,2$ sm ($K=1,39$) gacha jadallik bilan ko'tarilib borishi kuzatildi. Son suyagi ilik bo'shlig'i balandligi mutlaq ko'rsatkichining

o'sish koeffitsiyenti quyonlarning bir kunligidan 120 kunligiga qadar 7,68 martagacha ortishi aniqlandi.

Past harorat ta'sir ettirilgan kulrang velikan zotli quyonlar son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq o'lchami postnatal ontogenezning dastlabki kunidan 51 kunligiga qadar birmuncha jadal ortib, 21 kunlikda $1,2 \pm 0,03$ sm dan $2,15 \pm 0,08$ sm ($K=1,8$; $p<0,03$) gacha, 51 kunlikda $4,09 \pm 0,17$ sm ($K=1,86$) gacha yetishi hamda keyingi yoshlarda bu jarayonning biroz sekinlik bilan davom etishi, ya'ni 81 kunlikda $6,1 \pm 0,3$ sm ($K=1,57$) gacha, 120 kunlikda $8,9 \pm 0,4$ sm ($K=1,27$) gacha ko'tarilib borishi kuzatildi. Son suyagi ushbu ko'rsatkichining o'sish koeffitsiyenti postnatal rivojlanishning 1 kunligidan 120 kunligigacha bo'lgan davr davomida 7,42 martagacha ortishi aniqlandi.

Son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq ko'rsatkichi past harorat sharoitidagi oq velikan quyonlar postnatal taraqqiyotining bir kunligidan 51 kunligiga qadar jadallik bilan ko'tarilib, 21 kunlikda $1,04 \pm 0,015$ sm dan $1,88 \pm 0,1$ sm ($K=1,82$) ga, 51 kunlikda $3,49 \pm 0,16$ sm ($K=1,84$; $p<0,02$) ga yetishi, rivojlanishning keyingi bosqichlarida bu holatning sezilarli o'zgarishsiz davom etishi va 81 kunlikda $5,6 \pm 0,3$ sm ($K=1,58$) ni, 120 kunlikda $7,67 \pm 0,4$ sm ($K=1,36$) ni tashkil etishi kuzatildi. Son suyagi mazkur ko'rsatkichining o'sish koeffitsiyenti postnatal ontogenezning bir kunligidan 120 kunligigacha 7,38 martagacha ko'tarilishi qayd etildi.

Son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq o'lchami past harorat sharoitida saqlangan flandr zotli quyonlar postnatal taraqqiyotining bir kunligida $1,29 \pm 0,03$ sm bo'lib, keyingi 21 kunlikda $2,15 \pm 0,04$ sm ($K=1,79$) gacha, 51 kunlikda $4,1 \pm 0,15$ sm ($K=1,88$) gacha jadal ko'tarilishi, 81 kunlikda $6,4 \pm 0,3$ sm ($K=1,57$) ga, 120 kunlikda $9,02 \pm 0,14$ sm ($K=1,38$) ga bosqichli tarzda yetishi aniqlandi. Son suyagi ilik bo'shlig'i balandligi mutlaq ko'rsatkichining o'sish koeffitsiyenti quyonlarning 1 kunligidan 120 kunligigacha bo'lgan davr ichida 7,53 martagacha ortishi kuzatildi.

Xulosa:

– son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq ko'rsatkichi quyonlar postnatal rivojlanishining 51 kunligidan keyingi bosqichlarda jadal ortishi va bu holat proksimal va distal g'ovak moddasining yemirilishi bilan bog'liq ravishda kechishi kuzatiladi;

– son suyagi ilik bo'shlig'i balandligining mutlaq ko'rsatkichi optimal haroratda ayniqsa, postnatal ontogenezning dastlabki kunidan 21 kunligiga qadar kulrang velikan va flandr zotli quyonlarda oq velikan zotli quyonlarga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlandi;

– son suyagining mazkur ko'rsatkichi me'yordan yuqori va past haroratlarda saqlangan flandyer zotli quyonlarda kulrang velikan va oq velikan zotli quyonlarga nisbatan past bo'lishi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Александров С.Н. Кролики: разведение, выращивание, кормление /С. Н. Александров, Т.И. Косова. - М.: Аст, -2006. - 226 с.
2. Балакирев Н.А., Кролиководство и звероводство /Е.А. Тинаева, Н.И. Тинаев, Н.Н.Шумилина; под. ред. Н.А. Балакирева. Учебник Лан – 2024. – 336 с
3. Васильченко Г.В. Физиологическое состояние кроликов, биохимические показатели их тканей и органов после применения водно-дисперсных форм каротинсодержащих и витаминных препаратов: Дис. ... канд. биол. наук: Белгород, 2005 138 с.
4. Житникова Ю. “Кролики” Породы, разведение, содержание, уход 2004. –с. 6-7.
5. Клименко А. Полноценные комбикорма для кроликов [Текст] /А. Клименко, А. Захмылов // Комбикорма. – 2007. – №7. – С. 57.
6. Лактионов К.С. Физиология питания кроликов и пути повышения степени использования кормов / К.С. Лактионов. - Орел: Орл. ГАУ, -2007. - 164с.
7. Микрюкова, О.С. Кролиководство: учебно-методическое пособие / О.С. Микрюкова, В.И. Полковникова. – Перм: Про-крость, 2016. – 106 с.
8. Пашкова В.Г. Биология и кормление кроликов[Текст]/ В.Г. Пашкова, С.Я. Михайленко// Сборник статей. – 2003. – С. 145-149.
9. Шумилина Н.Н. Практикум по кролиководству / Н. Н. Шумилина, Ю.А. Калугин, Н. А. Балакирев. – 2-е изд., перераб. – Моск-ва: КолосС, 2016. – 272 с.
10. Bakirov B.B. Hayvonlarda modda almashinuvining buzilishlari va jigar kasalliklari, monografiya. Samarqand, 2016 y. 120-bet.
11. Biobaku W.O. Growth response of rabbits fed graded levels of processed and undulled sunflower seed / W.O. Biobaku, E.O. Dosumu // Nigerian Journal of Animal production. – 2003. – № 30(2). – P. 179-184.
12. Biro-Nemeth E., Radnai I., 2008. Effect of energy restriction in interaction with genotype on the performance of growing rabbits I: Productive traits. Livest. Sci., 118, p.123-131.
13. Safarov M.B. Hayvonlarda stress sabablari va oldini olish chora-tadbirlari. Samarqand – 2022. – 88 b.
14. Safarov M.B. Povedeniye karakulskix oves pri vozd-eystvii stressa. M. Veterinariya, 1989. 92-93 b.
15. Safarov M.B., Safarov M.M. Klinik diagnostika. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2017 yil. 345 b.
16. Safarov M.B., Safarov M.M. Veterinariya diagnostikasi va rentgenologiyasi. Darslik.. Toshkent, 2019. 450-b.
17. Saggese G., Baroncelli G.L., Federico G., Bartelloni S. Effects of growth hormone on phosphocalcium homeostasis and bone metabolism // Hormone Res. -1995. -№44 (suppl. 3). –P. 55-63.

МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ СРЕДНЕАЗИАТСКОЙ ОВЧАРКИ В УЗБЕКИСТАНЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОКРАСОВ И СТРУКТУРЫ ШЕРСТНОГО ПОКРОВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПОЛА, РЕГИОНА И ТИПА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Нурматова В.Б., с.н.с.,
ORCID iD 0000-0001-9610-1727,

Научно-исследовательский институт окружающей среды
и природоохранных технологий при Центрально-Азиатском
университете изучения окружающей среды и изменения климата
(Green University)

Аннотация. В статье представлены результаты морфометрического исследования популяции среднеазиатской овчарки на территории Узбекистана за период 2011–2025 гг. Основной целью работы являлось выявление внутривидовых фенотипических различий, ассоциированных с типом использования, полом и географическим происхождением. Исследовано 232 собаки в возрасте от 1 до 9 лет. Проведен детальный анализ окрасов и длины шерстного покрова с применением методов описательной статистики, t-критерия Стьюдента (с поправкой Уэлча) и однофакторного дисперсионного анализа (ANOVA). Установлено, что фактор региона оказывает определяющее влияние на распределение фенотипических классов, тогда как половая дифференциация по длине шерсти не достигает уровня статистической значимости. Выявлена значимая корреляция между условиями пустынной зоны и доминированием палевого окраса (до 75%), что интерпретируется как проявление естественного средового отбора. Полученные данные могут служить основой для мониторинга генетического разнообразия и разработки критериев идентификации породы.

Ключевые слова: среднеазиатская овчарка, зоометрические показатели, окрас, тип шерсти, внутривидовая изменчивость, половой диморфизм, адаптивная радиация, пастушьи собаки.

Введение. Процесс domestikации собаки (*Canis familiaris*), охватывающий период не менее 15000 лет, привел к формированию беспрецедентного фенотипического разнообразия, насчитывающего на сегодняшний день более 400 официально признанных пород [1–5]. В рамках эволюционной биологии и зоотехнии особый интерес представляют автохтонные породы, длительное время подвергавшиеся комплексному действию естественного и искусственного отбора в специфических климатогеографических условиях.

К числу таких пород относится среднеазиатская овчарка (СО) — пастушья охранная собака, исторический ареал которой охватывает обширные территории от Иранского нагорья до Кыргызстана [6–8]. У тюркоязычных народов она известна как «чопан-ити», у персоязычных — как «саги чупони» (собака пастуха). Порода характеризуется крупным ростом, выраженным половым

Abstract. The article presents the results of a morphometric study of the population of the Central Asian Shepherd Dog in Uzbekistan for the period 2011–2025. The main purpose of the work was to identify intra-breed phenotypic differences associated with the type of use, sex and geographical origin. 232 dogs aged 1–9 years were studied. A detailed analysis of coat colors and length was performed using descriptive statistics, Student's t-test (with Welch correction) and univariate analysis of variance (ANOVA). It has been established that the factor of the region has a decisive influence on the distribution of phenotypic classes, while sexual differentiation in terms of coat length does not reach the level of statistical significance. A significant correlation was found between the conditions of the desert zone and the dominance of fawn color (up to 75%), which is interpreted as a manifestation of natural environmental selection. The data obtained can serve as a basis for monitoring genetic diversity and developing breed identification criteria.

Keywords: Central Asian Shepherd Dog, zoometric parameters, color, coat type, inbreed variability, sexual dimorphism, adaptive radiation, shepherd dogs.

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2011–2025 yillar davomida O'zbekistonda o'rta Osiyo cho'pon iti aholisini morfometrik o'rganish natijalari keltirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi foydalanish turi, jinsi va geografik kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan nasl ichidagi fenotipik farqlarni aniqlash edi. 1 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan jami 232 ta it tekshirildi. Palto rangi va uzunligini batafsil tahlil qilish tavsiflovchi statistika, Student t-testi (Welch tuzatish bilan) va bir tomonlama dispersiya tahlili (ANOVA) yordamida amalga oshirildi. Fenotipik sinflarning tarqalishiga mintaqaviy omillar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi aniqlandi, shu bilan birga palto uzunligi bo'yicha jinsiy farqlash statistik ahamiyatga ega emas edi. Cho'l sharoitlari va jigarrang rangning ustunligi (75% gacha) o'rtasida sezilarli bog'liqlik aniqlandi, bu tabiiy ekologik tanlanishning namoyon bo'lishi sifatida talqin etiladi. Olingan ma'lumotlar genetik xilma-xillikni kuzatish va nasllarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo cho'pon iti, zoometrik ko'rsatkichlar, rangi, jun turi, zot ichidagi o'zgaruvchanlik, jinsiy dimorfizm, adaptiv nurlanish, cho'pon itlari.

диморфизмом, крепким типом конституции, физиологической выносливостью и высокой адаптивностью к экстремальным абиотическим факторам среды — от резко континентального высокогорного климата до аридных пустынных экосистем. Поведенческий комплекс включает ярко выраженный охранительный инстинкт, высокую степень автономности, способность к длительной голодовке без потери работоспособности [9–11].

Несмотря на широкое распространение породы и ее хозяйственную значимость, систематические исследования фенотипической структуры популяции СО на территории Узбекистана до настоящего времени носили фрагментарный характер. Статья, раскрывает часть исследований проведенных по изучению морфологических признаков [11] и рабочих качеств популяции среднеазиатской овчарки, как автохтонной, так и заводской, в Республике Узбекистан.

Цель статьи — проведение сравнительного анализа распределения вариаций окраса и длины шерсти в популяции среднеазиатской овчарки Узбекистана в разрезе трех факторов: половой принадлежности, географического региона и типа хозяйственного использования. Решение данной задачи позволит создать референтную базу для идентификации породного состава и оптимизации стратегий сохранения генетического разнообразия этого биологического ресурса.

Материалы и методы исследования. Исследования выполнялись в 2011–2025 гг. на территории Республики Узбекистан. Объектом исследования послужили 232 предположительно чистокровные особи среднеазиатской овчарки (СО) в возрасте от 1 до 9 лет. В зависимости от характера хозяйственного использования, популяция была разделена на две группы:

1. Домашние охранные собаки (ДОС) — содержащиеся гражданским населением в качестве компаньонов и охраняющие частные территории;

2. Пастушьи охранные собаки (ПОС) — рабочие собаки, используемые овцеводческими хозяйствами для охраны отар.

Выборка также была разделена по половому признаку и трем физико-географическим зонам: горы/предгорья, равнины, пустыни/полупустыни (Табл. 1).

Таблица 1.

Структура исследуемой выборки среднеазиатской овчарки по географическим зонам, типу использования и полу

Географические зоны	Домашние охранные собаки (ДОС) N= 116		Пастушьи охранные собаки (ПОС) N= 116	
	К	С	К	С
Горы и предгорья	26	10	58	16
Равнины	41	19	16	6
Полупустыни и пустыни	10	10	14	6

N: количество; К: Кобели; С: Суки

В ходе полевых исследований проводилась глазомерная оценка экстерьера, фиксация окраса, определение типа и длины ости. Зоометрические измерения выполнялись с использованием мерной ленты и зоометрической линейки (палка Линдтина) с точностью до 0,5 см [12]. Живая масса регистрировалась на платформенных весах с точностью до 0,5 кг. Классификация окрасов проводилась согласно стандартному перечню FCI [13] с выделением вариаций (например, черный / черно-белый / бело-черный и т.д.). Длина шерсти дифференцировалась на три категории: короткая (≤ 3 см), средняя (4–5 см) и длинная (≥ 6 см). Все животные на момент осмотра были клинически здоровы; процедуры носили неинвазивный характер и проводились с согласия владельцев. Этическое одобрение не требовалось ввиду отсутствия манипуляций с лабораторными животными.

Статистическая обработка выполнена с использованием пакета Microsoft Excel (Windows 11) [14]. Применялись методы вариационной статистики, расчет t-критерия Стьюдента с поправкой Уэлча для несвязанных выборок, а также однофакторный дисперсионный анализ (ANOVA) для оценки влияния регионального фактора. Критический уровень значимости принимался равным $p < 0,05$.

Результаты исследования и обсуждение. В ходе исследования были идентифицированы следующие вариации окрасов: белый (чистый), черный (с вариациями черно-белый и бело-черный), рыжий (рыже-белый, бело-рыжий), палевый (палево-белый, бело-палевый), тигровый (тигрово-белый, бело-тигровый), серый (серо-белый, бело-серый), черно-рыжий (подпалый), трехцветный (tricolor) и бурый. Длина ости варьировала в диапазоне от 3 до 7 см. Структура шерсти у всех обследованных особей характеризовалась грубостью, плотным прилеганием и наличием хорошо развитого подшерстка; случаи алопеции или отсутствия подшерстка зарегистрированы

Таблица 2.

Сравнительный анализ частот окрасов (%) и абсолютных значений (n) у ДОС и ПОС в трех географических регионах

Окрас	Горы и предгорья		Равнины		Пустыни и полупустыни	
	ДОС	ПОС	ДОС	ПОС	ДОС	ПОС
Кобели						
	(n=26)	(n=58)	(n=41)	(n=16)	(n=10)	(n=14)
Черный/Черн-бел	8 (30,8%)	10 (17,2%)	7 (17,1%)	5 (31,2%)	0 (0%)	5 (35,7%)
Палевый/Бел-пал	11 (42,3%)	4 (6,9%)	2 (4,9%)	6 (37,5%)	6 (60,0%)	1 (7,1%)
Рыжий/Бел-рыж	4 (15,4%)	3 (5,2%)	10 (24,4%)	7 (43,8%)	1 (10,0%)	3 (21,4%)
Тигровый/Бел-тигр	4 (15,4%)	4 (6,9%)	3 (7,3%)	8 (50,0%)	0 (0%)	4 (28,6%)
Белый (чистый)	0 (0%)	2 (3,4%)	7 (17,1%)	1 (6,2%)	1 (10,0%)	0 (0%)
Прочие(Бурый/Сер)	1 (3,8%)	5 (8,6%)	4 (9,8%)	4 (25,0%)	0 (0%)	0 (0%)
Суки						
	(n=10)	(n=16)	(n=19)	(n=6)	(n=10)	(n=6)
Черный/Чер-бел	5 (50,0%)	2 (12,5%)	4 (21,0%)	1 (16,7%)	0 (0%)	0 (0%)
Палевый/Бел-пал	0 (0%)	1 (6,2%)	5 (26,3%)	2 (33,3%)	6 (60,0%)	3 (50,0%)
Рыжий/Бел-рыж	4 (40,0%)	4 (25,0%)	3 (15,8%)	2 (33,3%)	3 (30,0%)	3 (50,0%)
Тигровый/Бел-тигр	1 (10,0%)	2 (12,5%)	1 (5,3%)	2 (33,3%)	1 (10,0%)	4 (66,7%)
Белый (чистый)	0 (0%)	0 (0%)	4 (21,0%)	0 (0%)	0 (0%)	0 (0%)
Прочие (Бурый/Сер)	0 (0%)	1 (6,2%)	2 (10,5%)	1 (16,7%)	0 (0%)	0 (0%)

Таблица 3.

Сравнительный анализ длины шерсти по полу и регионам
для ДОС и ПОС

Длина шерсти	Горы и предгорья		Равнины		Пустыни и полупустыни	
	ДОС	ПОС	ДОС	ПОС	ДОС	ПОС
Кобели						
	(n=26)	(n=58)	(n=41)	(n=16)	(n=10)	(n=14)
Короткая (≤ 3 см)	9 (34,6%)	9 (15,5%)	15 (36,6%)	16 (100%)*	2 (20%)	5 (35,7%)
Средняя (4-5 см)	16 (61,5%)	14 (24,1%)	13 (31,7%)	7 (43,8%)	6 (60%)	5 (35,7%)
Длинная (≥ 6 см)	3 (11,5%)	5 (8,6%)	5 (12,2%)	8 (50,0%)	0 (0%)	3 (21,4%)
Суки						
	(n=10)	(n=16)	(n=19)	(n=6)	(n=10)	(n=6)
Короткая (≤ 3 см)	2 (20%)	2 (12,5%)	10 (52,6%)	4 (66,7%)	7 (70%)	5 (83,3%)
Средняя (4-5 см)	8 (80%)	6 (37,5%)	6 (31,6%)	1 (16,7%)	3 (30%)	0 (0%)
Длинная (≥ 6 см)	0 (0%)	2 (12,5%)	3 (15,8%)	3 (50,0%)	0 (0%)	5 (83,3%)

*Примечание: в группе ПОС равнины (кобели) все 16 особей отнесены к короткошерстным, что может объясняться малым размером подвыборки и спецификой местной линии.

не были. Пигментация радужной оболочки глаз преимущественно варьировала от коричневого до темно-коричневых оттенков; депигментация мочки носа и век (осветление в тон окраса) отмечена у единичных особей ДОС.

3.1. Анализ распределения окрасов. Распределение окрасов в разрезе факторов «Тип использования $\times$ Пол $\times$ Регион» представлено в таблице 2. Абсолютные и относительные частоты рассчитаны строго внутри каждой подгруппы.

